

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya qilaman”

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani

_____ **f.f.n.Sh.Nuriddinov**

HAMID OLIMJON IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI
AN‘ANALARI

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Filologiya va tillarni o‘qitish

(o‘zbek tili) yo‘nalishi bitiruvchisi

IV kurs talabasi Nortosheva M.

.....

ILMIY RAHBAR:

Filologiya fanlari nomzodi A.Hamdamov

.....

Bitiruv mlakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

--- sonli bayonnomasi “-----” -----2016 yil

Kafedra mudiri

f.f.d. N.Shodmonov

Qarshi – 2016

M U N D A R I J A

Kirish	3
--------------	---

I BOB. HAMID OLIMJON VA XALQ OG'ZAKI IJODI

1.1. Shoir ijodida folklor an'analarining o'rni.....	5
1.2. Hamid Olimjonning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati ...	24

II BOB. SHOIR IJODIDA ADABIY ERTAK VA DOSTONLARNING O'RNI

2.1. "Zaynab va Omon" dostonida epiklik va an'ana talqini	34
2.2. Adabiy ertaklarda uydirma va reallikning uyg'unligi.....	44

UMUMIY XULOSALAR	58
------------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	60
--	----

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Yosh avlodni mustaqil O'zbekistonning kelajagini ta'min etuvchi komil inson sifatida tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Yozuvchilarimiz o'z iste'dodi bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo'lishdek og'ir va murakkab, ulug' bir vazifani zimmasiga olgan ekan, avvalo el-yurt oldidagi farzandlik burchini va mas'uliyatini chuqur sezishi, anglashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezidentimiz Islom Karimov:” Mening fikrimcha, yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddur. Bu-qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilik ning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan *xizmat qilishdir*”¹, -deb ta'kidlagan edilar.

Ma'lumki, kishilar ma'naviy dunyosini boyitishning xilma-xil shakllari bo'lib, ularning biri fan, adabiyot, san'at va madaniyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ijodkorlar olamini targ'ib qilishdan iboratdir. Biz o'z ishimizda adabiyotdagi yo'nalishlar, ularning ijodkorlarga ta'siri masalasini xalqimizning sevimli shoiri, xalqimiz o'rtasida baxt va shodlik kuychisi nomini olgan Hamid Olimjon ijodi misolida yoritmoqchimiz.

Hamid Olimjon xalq og'zaki ijodi zaminida voyaga yetdi. Shu sababdan bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodining ta'siri uning she'rlarining faqat vazniga, ohangigagina emas, balki shoirning qariyb barcha asarlarining ruhiga ham singib ketgan, deb ayta olamiz. Shoir xalq og'zaki ijodidan asarlariga sujetlar tanladi, shunga mos holatlarni tanladi, folklor namunalari asosida jozibali obrazlar, xarakterli misralar kashf qila oldi. Adabiy ertak dostonlaridagi syujetlarni real hayot voqealari bilan uyg'unlashtirdi. Shoir ijodining ana shu qirrasini o'rganish ishning dolzarbligini anglatadi.

¹ Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 17-18-бетлар.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Hamid Olimjon o‘zbek she‘riyati yangi davrida o‘ziga xos yo‘nalish yaratgan shoir hisoblanadi. Ijodkor XX asrning 20-yillaridan faoliyat ko‘rsatdi. Shoir ijodi she‘r ixlosmandlari va adabiyotshunoslarni befarq qoldirmadi. Tanqidchi va adabiyotshunos olimlarimizdan Salohiddin Mamjonov, Sarvar Azimov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Naim Karimov, Umarali Normatov, Abdug‘afur Rasulov, Baxtiyor Nazarov, No‘mon Rahimjonov, Ibrohim G‘afurovlar ijodkor olamini o‘rgandilar, ilmiy risola va maqolalar tayyorlashdi.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Biz o‘z ishimizda XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Hamid Olimjon ijodiy merosini atroflicha o‘rganmoqchi bo‘ldik. Shoirning bir qator voqeband she‘rlari bilan bir qatorda “Zaynab va Omon”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg’ yoki Parizod va Bunyod”, “Muqanna” kabi o‘nlab asarlari, ertak – doston va dramalari kitobxonlarning sevimli asariga aylangan. Shoir asarlariga adabiyotshunoslarimiz ham befarq bo‘lishmagan. Biz o‘z oldimizga shoirning xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan foydalanishdagi mahoratini o‘rganishni maqsad etib qo‘ydik. Shuningdek, shoirning adabiy ertak dostonlarida rivoyat va reallikning uyg‘unlashtirilishidagi shoir mahoratiga e‘tibor qaratdik.

Bitiruv-malakaviy ishni yozish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarni o‘z oldimizga qo‘ydik:

Hamid Olimjonning hayot va ijod yo‘lini o‘rganish;

shoir ijodining ravnaq topishida asos bo‘lgan manbalar va omillarni isbotini topish;

ertak dostonlarida rivoyat va haqiqatning uyg‘unlashuvdagi shoir mahoratini o‘rganish.

BMIning ilmiy yangiligi. Ishda Hamid Olimjon ijodida follor an‘analarining o‘rni masalasi tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Shoir asarlari syujetida xalq og‘zaki ijodi bilan real hayotni uyg‘unlashtirish borasidagi mahoratini tadqiq etish ishning o‘ziga xos ilmiy yangiligini belgilashga xizmat

qiladi. Shuningdek, ishda muammoning quyidagi jihatlarini yangilik sifatida qayd etish lozim:

– shoir dostonlarida jonli xalq tilidan mohirona foydalanib voqealar syujetini real hayot voqealari bilan bog‘lashga erishgan degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot predmeti va obykti. Tadqiqotning predmeti sifatida Hamid Olimjon ijodida folklor an‘analari, shoir ijodining shakllanishidagi manba va omillar, xalq og‘zaki ijodining shoir ijodidagi tutgan o‘rni kabilar asos qilib olindi. Shoirning ”Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg” hamda “Muqanna” tarixiy dramasi ishning obykti qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Hamid Olimjon ijodiga qarash hozirgi adabiyotimizda o‘zgardi. Sobiq sho‘ro davri adabiyotida shoir ijodi bir tomonlama o‘rganildi, ko‘p asarlari bir tomonlama tahlil qilindi. Bu haqdagi ayrim mulohazalar Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Naim Karimov, Hotam Umurov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim Haqqulov va Ibrohim G‘afurovlarning tanqidiy maqolalarida uchraydi. Shuningdek, shoir tavalludining 100 yilligini nishonlash munosabati bilan ilmiy-nazariy konferensiyalar uyushtirildi, Gazeta va jurnallarda, maxsus to‘plamlarda Ishni yoritishda shoir to‘plamlari, yuqorida nomlari keltirilgan tanqidchilarning tadqiqotlaridan foydalandik. Ayrim she‘rlari, ertak va dostonlarini tahlil qildik.

BMI materiallaridan kollej va litseylarda yangi o‘zbek adabiyoti, shu jumladan, shoir ijodi yuzasidan nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlari olib borishda, shuningdek, Hamid Olimjon ijodi bo‘yicha ixtisoslik kursi va tanlov fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Bular tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

BMIning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, ikki bob (har ikkala bob ikki fasldan) va xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham ko‘rsatildi, jami ... sahifani tashkil etadi.

I BOB. HAMID OLIMJON VA XALQ OG'ZAKI IJODI

1.1. Shoir ijodida folklor an'analarinng o'rni

Adabiy-badiiy va tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, H.Olimjonning haqiqiy xalqchil shoir sifatida shakllanishida, dastlab oila a'zolari va ota-bobolari xonadonlaridagi qizg'in suhbatlar, Jizzax adabiy muhiti va keyinchalik xalq baxshilari bilan shaxsan tanishishi, ular bilan ko'p yillar ijodiy hamkorlikda bo'lishlari, folklor materiallarini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganish faoliyati muhim omillardan biri sifatida katta rol o'ynagan. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan jizzaxlik shoir Iskandar Qambar o'g'li Madyunning xabar berishicha, shoirga uchunchi bobo avlod sanalgan mulla Yoqub, uning to'rt o'g'illari – Mulla Yunus, Mulla Yusuf, Mulla Hizir, Mulla Azimlar o'z zamonasining nihoyatda dilkash, mehmondo'st kishilari bo'lishgan. Ayniqsa, bobosi Mulla Azim va uning oila a'zolari, onasi Komila ayaning o'zi ham she'riyat shaydosi, ijokor xalq xazinasining o'ta bilimdoni bo'lgan. Vatandoshimiz H.Olimjon ham ana shu muborak oilada tug'ildi, o'sdi va kamol topdi.

Shoirning bolalik chog'laridanoq folklorga alohida mehr qo'yishga, xalq shoirlari bilan ko'p yillar davomida hamnafas, hamdard va ijodiy aloqada bo'lishga bobosi Mulla Azim sababchi bo'lgan. Chunki, u Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan shaxsan tanish, hayotda qadrdon va do'st bo'lgan. Xalq shoirining aytishicha, vaqti-vaqti bilan Jizzaxga borib, do'stining ya'ni Azim boboning uyida, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlariga qo'shiq aytib qaytgan.

Ana shunday o'zaro hayotiy do'stlik, ijodiy hamkorlik, qizg'in suhbatlardagi doston va qo'shiqlarning ijro etilishi shu mo'tabar xonadonning kichik a'zosi yosh Hamidning murg'ak qalbida chuqur iz qoldiradi; o'z davrining dongdor kuychisi Fozil shoir bilan yoshlikdan shaxsan tanishadi. Bo'lajak shoir qalbida she'riyatga, folklorga bo'lgan havas g'unchalari yanada oshadi. Keyinchalik shu sohaning jonkuyari va tadqiqotchilaridan biriga aylanishiga sabab bo'ladi.

H.Olimjon hayotda va ijodda xalq baxshilariga, umuman folklorga alohida mehr-muhabbat va samimiy hurmat bilan qaradi. Buni biz Fozil shoirga bag'ishlangan "Kuychining hayoli", Abdulla shoir Nurali o'g'liga atalgan "Do'mbiraning maqtovi" she'rlarida, "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", "Ikki qizning hikoyasi" kabi ertak dostonlarida yaqqol ko'ramiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shoir folklor bilimdoni sifatida o'z ijodida o'zbek xalq ertaklari va dostonlariga xos bo'lgan ko'pgina xalqona uslublarni qo'llaydi. Natijada har qanday kitobxon bunday asarlar folklorga xos bo'lgan oddiy motiv yoki syujet, kuchli fantastika, ehtiros va lirizm ruhi bilan sug'orilgan shah asarlarga aylanganligini sezadi. Bulardan tashqari, shoirning "Shodiyona", "Yigitlarni frotga jo'natish", "Xat" va "Bo'l omon", "Qishloq qizi" kabi she'rlari ham folklore ruhi bilan chuqur sug'orilgan ajoyib asarlar sifatida adabiyotimiz sahifalaridan munosib joy oldi. Ularni o'qiganda har bir she'riyat shaydosi, yagona umumiy xususiyat-xalqona ifoda usuli birlashib turganligiga guvoh bo'ladi.

Shoir Fozil Yo'ldosh o'g'lining epik repertuarida ana shunday bukuk xizmatlarini "Alpomish" dostoning ming yillik to'yiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanda quyidagi gaplar bilan alohida e'tirof etadi: "Shoir H.Olimjon dostonni nashrga tayyorlashda uni qariyb yarmiga qisqartirgan. Ammo bu qisqartirish shu darajada bilim va san'atkorlik bilan amalgam oshirilganki, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biron bir so'z qo'shmagan, doston tilini tahrir qilmagan... Nashrga tayyorlovchi olti ming misraga yaqin matnni qisqartirga bo'lsa-da, dostonni o'qish davomida bu narsa deyarli sezilmaydi. Shoir nashrga kattagina so'zboshi ham yozib, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil etdi. Shuning uchun ham bu nashr madaniyatimiz tarixida katta voqea bo'ldi va xalq dostonlarini nashr etishdagi ijobiy tajriba sifatida o'z ahamiyatini hanuz yo'qotgan emas".

Hamid Olimjon "Alpomish" dostonini o'rganish va nashrga tayyorlash jarayonida uning til go'zalligiga qoyil qoladi, ulardan o'zining asarlarida juda o'rinli va ijodiy foydalana oladi. Masalan, "Alpomish"dagi:

“Yana bahor bo‘lsa, ochilar gullar,
Gulni ko‘rsa mast bo‘p sayrar bulbullar”

Singari misralar “Zaynab va Omon” poemasida quyidagicha beriladi:

Gul ochilar bahor chog‘ida

Va to‘lishar ona bog‘ida...

Hamid Olimjon “Zaynab va Omon”dagi

Kokillari uning tol-tol

Lablarida bitgan qora xol,

Bu dunyoga arziguday bor...

Kabi liriknafas misralarni ”Alpomish” dagi

Kokillaring eshilgandir tol-tol,

Har toliga bersa yetmas dunyo mol,

Singari epik tasvirdan ijodiy foydalanganligini alohida ta’kidlash lozim.
Bunday misollarni shoir ijodidan juda ham ko‘plab keltirish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodiyotining yozma adabiyot vakillari ijodiga ta’siri turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Professor B.Sarimsoqovning qayd etishicha, folklore va adabiyot munosabatida quyidagi ikki tip ko‘zga tashlanadi; birinchisi, oddiy tip bo‘lib, maqol, metal, uchiriq so‘zlar va iboralardan foydalanish bo‘lsa, ikkinchisi murakkab tip bo‘lib, u o‘z navbatida, analitik, sintetik va uslubiy ko‘rinishlarga ega. Professor S.Ro‘zimboyevning “Shoirning ilhom manbai” nomli maqolasida folklore va adabiyot munosabatidagi sintezlashgan tip haqida gap ketadi, ya’ni H.Olimjonning mashhur “O‘zbekiston” she’rining ilhom manbai – yaratilishi folklorga borib bog‘lanishi haqida so‘z yuritiladi. Unda quyidagi ma’lumotlarga duch kelamiz:

Madaniy merosimizning noyob asarlari bo‘lgan dostonlarda elni ta’rif qilib she’r aytish an’anasi mavjud. Epik qahramon ov ovlab yoxud yor izlab, o‘zga ellarga borib qolganda, o‘sha eldagilar undan: “Ey yigit, qayerdansen, o‘z eling ta’rif qil”, - deb so‘rashadi. O‘shanda epik qahramon o‘z eli haqidagi tasavvurini lirik kechinma sifatida bayon etadi. Xuddi o‘sha lavha Xorazmda mashhur bo‘lgan “Yusuf va Ahmad” dostonida ayniqsa ta’sirchan ruhda berilgan. Yusuf va Ahmad Eron shohiga

asir tushganda, shoh ulardan kimligini, el-yurtini bayon etishni soʻraydi. Oʻshanda Yusuf Xorazmni taʼrif eta boshlaydi:

Ey shohim, bizning ellarning
Xush oʻtar yozu qishlari.
Bogʻlarini bogʻbon boqar,
Mevalidir yogʻochlari.

Qarilari uyda yotar,
Yigitlari saygʻoq otar,
Qiz-juvoni chiqib tutar,
Zavqi safodir ishlari.

Bedovlari jeva cholur,
Chopgʻonda paykondek.

Tabl qoqsang oʻrdak uchur,
Balandparvozdor qushlari.

Choʻllari bor murgʻzorli,
Shaharlari xush bozorli,
Tovushqonli, kiyikxorli,
Yozi yonboshim doshlari.

Saxiylari Hotamcha bor,
Sardorlari Bahromcha bor,
Maydon ichra Rustamcha bor,
Balandparvozdor qushlari.

Bek Yusufbek shuldir ishim,
Yetkay xudoga nolishim,
Ozod bo'lg'ay banda boshim,
Duo qilsa darveshlari.

H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ridan esa quyidagi misralar bor:

Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor-atrofga yoyilgan gilam.
Aslo yo'qdir budayin ko'klam.

Chavandozlar bordir bu elda,
Bahor chog'i pishqirgan selda.
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir,
Bu shundayin ajib diyordir.

Dalasida o'smas tikonlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar,
Qush uchsada, kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti.

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda kurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol.

Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,

Qarilari kutadi mehmon.

Ikkita parchaga e'tibor bilan nazar tashlansa, har ikkala ta'rifning ko'pgina mushtarak tomonlarini anglab olish qiyin emas, jumladan, dostonidagi ta'rifda Xorazmning yozu-qishlarining o'ziga xos tarovati kuylansa, shoir misralarida diyorimizning ko'klam fasli madh etiladi.

Dostonidagi elning qariyalari, qiz va yigitlari haqidagi ta'rif she'rda yanada aniqroq tarzda o'z aksini topadi.

Dostonda bedovlar, qushlar g'urur bilan tasvirga olinsa, she'rda ham arg'umoqlar, bulbullar ta'rifi yuksak ko'tarinkilik bilan talqin etiladi. Dostonda hatto cho'llarning bag'rida bebaho boyliklar yashiringani kuylansa, she'rda ham ushbu masalalarga asosiy e'tibor qaratadi.

Har ikkala she'rning bag'rida yashiringan yuqoridagi asosiy detallar ulardagi asosiy mundarijaning o'zaro ancha yaqinligini har jihatdan isbotlaydi.

Albatta H.Olimjon she'ridagi ta'riflar keng qamrovli va zamonaviy bo'lib, she'r esa o'zi yaratilgan davr bilan uzviy bog'langan, badiiy barkamol asardir.

Biroq bu she'rning paydo bo'lishida "Yusuf va Ahmad" dostonidagi Xorazm ta'rifining muayyan ta'siri bo'lishi mumkin. Chunki, H.Olimjon xonadonida ko'plab baxshilar tz-tez bo'lishib, Mulla Azim bilan suhbatlashib dostonlar kuylaganlar, qissaxonlik qilganlar. H.Olimjon esa "Yusuf va Ahmad"ning qo'lyozmasini o'qigan bo'lishi mumkin. Qolaversa, ushbu doston Fozil shoir repertuarida bo'lganligi bizga ma'lum.

Binobarin, dostonidagi el-yurt ta'rifi H.Olimjonda O'zbekiston ta'rifi bilan aloqador fikrning tug'ilishiga sababchi bo'lib shoirning ilhom manbai sifatida xizmat qilganligi, shubhasizdir.

H.Olimjonning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati respublika yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimida ishlaganida, A.Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan yubiley qo'mitasining ilmiy kotibi, keyinchalik, qo'mita raisining o'rinbosari vazifasida qilganida yana kuchaydi. Bu davrlarda xalq baxshilari

o'rtasida mumtoz adabiyotning eng sira asarlarining ommalashtirish va tushuntirish ishlari bilan faol shug'ullandi.

Masalan, Navoiyning 500 yilligi va gruzin shoiri Shota Rustavelining 750 yilligi munosabati bilan ularning ayrim asarlari mazmunini tushuntirib beradi. Natijada, badihago'y xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li Navoiy asarlari asosida "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Bahrom va Gulandom" dostonlarini, Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" asari asosida shu nomdagi dostonning xalq variantini yaratdi, ijod qiladi.

H.Olimjon 1938 yilda xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan birga qozoq adibi Jambul Jabayevning 100 yillik yubileyida qatnashadi. Bundan ilhomlangan H.Olimjon J.Jabayevga bag'ishlangan bir qator maqolasi va "Qozog'iston" she'rini yaratsa, Fozil shoirning "Nishondor Jambulga" nomli termasi ro'yobga chiqadi.

Adabiy-badiiy va tarixiy hujjatlarning tasdiqlashicha, H.Olimjonning bevosita tashabbusi bilan xalq shoirlari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadqul Jomrod o'g'li Po'ltan, Islom shoir Nazar o'g'li va Bola baxshi Abdullayevlar respublika yozuvchilar uyushmasiga qabul qilingan. H.Olimjon ularga shaxsiy kotiblar tayinlagan, asarlarining nashr qilinishida bosh-qosh bo'lgan, xalq shoirlarining hayoti va ijodini muntazam kuzatib, fikr-mulohazalar bildirib borgan.

Xullas, H.Olimjon bolalik chog'laridanoq folklorga alohida mehr bilan qaragan bo'lsa, umr bo'yi xalq shoirlari bilan hamnafas, hamdard, hamkor va ijodiy aloqada bo'ldi. Ularning dostonlaridan ijodiy ravishda katta mahorat bilan foydalana oldi. Ularning hammasi "Hamid Olimjon va folklor" mavzusining turli qirralarini tashkil etadi.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga xos mazmun va shakl komponentlaridan foydalanish yozma adabiyotni asosiy omillaridan biri. Zotan, iste'dod xalq hayotidan, uning ma'naviy-psixologik va milliy-mahalliy ruhidan ayri holda barkamol bo'lolmaydi. Binobarin, "shoir bo'lib tug'ilish kerak bo'lsa, u taqdirda xalqchil ham bo'lib tug'ilish kerak" (V.G. Belinskiy).

Hamid Olimjon V.G. Belinskiy orzu qilgan shoirlardan edi. Uning shavq va sururga to‘la she‘riyati teran xalqchil hamdir. Shoirning badiiy ijodda xalqchillikning o‘zagini tashkil etuvchi folklorlarga murajaati masalasi o‘zbek adabiyotshunoslarining birtalay ishlaridan o‘rin olganligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum. Bu ishlarda shoirning xalq og‘zaki poetic ijodiyoti namunalariga murojaat etishida kelib chiqadigan umumiy prinsiplar aniqlangan va folklor H.Olimjon asarlariga xos xalqchillik xususiyatining markaziy nuqtasi ekanligi haqidagi xulosaga kelingan. Biroq, nazarimizda, shoir asarlariga singib ketgan folklor ruhining g‘oyaviy-estetik roli hali to‘laligicha yoritilgan emas. Qolaversa, shu kunga qadar mazkur muammoga bag‘ishlangan alohida tadqiqot ishi yaratilmagan. Bu esa yangi izlanishlarni talab va taqozo etadi. Biz ustozlar va Hamid Olimjonshunos hamkasblar ortidan ergashib, mazkur masala xususidagi fikrlarimizni aytib o‘tmoqchimiz.

Hamid Olimjon tom ma’nodagi xalqchil shoir edi. Zotan, xalq dardi, tuyg‘usini anglay bilish bo‘lajak shoirning insoniy qiyofasini belgilaydigan fazilatlardan biri sifatida yoshligidan mujassam topgan edi. Tadqiqotchilar bu xususda so‘z yuritganlarida shoirning “Bolalik kunlarimda...” deb boshlanuvchi e’tirofnomasini keltirishni xush ko‘radilar. Jumladan, Naim Karimov shoir ijodiga xos xalqchillik ildizlarini shunday izohlaydi: “Komila opaning qo‘shiq, cho‘pchak, topishmoq, ertak va rivoyatlarga boy muhofazasi G‘oyib otaning yulduzli kechalarida ham, Jizzaxlik mahallisidagi qo‘rg‘on tanchasida kechgan uzun qish kunlarida ham asqotdi. Xalqchil ijodiy fantaziyasidan sehrlangan Hamid onasidan Yoriltosh, Tohir va Zuhra, Oygul va Baxtiyor haqidagi ertaklarni takror-takror eshitdi. Ertaklar olami, xalq, ijodi durdonalari bilan to‘la muhit Hamidda badiiy so‘zga nisbatan havas va so‘nmas muhabbat uyg‘otdi”.

Oldimizga qo‘yilgan vazifadan kelib chiqib shunga aniqlik kiritmoqchimizki, professor N.Karimov tilga olgan Oygul va Baxtiyor nomi bilan ataladigan xalq ertagi mavjud emas. Mazkur nomlar ilk bor H.Olimjon tomonidan xalqning “Malikai Husnobod” ertagini ijodiy qayta ishlash jarayonida qo‘llanilgan. Kezi kelganda shuni

ham aytib o'tish kerakki, N.Karimov yuqorida negadir bitta tushunchani anglatuvchi cho'pchak va ertak so'zlarini folklorning alohida janrlari sifatida sanab o'tadi.

N.Karimov H.Olimjonda xalq ijodiyotiga bo'lgan qiziqishning ikkinchi omili sifatida mulla Azim xonadoniga tez-tez kelib, doston kuylagan Fozil Yo'ldosh o'g'lining ijodiy ta'sirini ko'rsatib o'tadi. Bu ta'sir shoirning "Kuychining hayoli" she'rida ham e'tirof qilinadi.

O'zbek xalq dostonlarining tolmas kuychisi F.Yo'ldosh o'g'liga bag'ishlangan mazkur asar 1936 yilda yozilgan. U 21 bandni o'z ichiga olgan olti qismli katta hajmdagi she'r sanaladi. Bu asar yaratilgan davrda ayrim o'zbek olimlari faoliyatida ham folklor asarlariga nisbatan vulgar-sotsiologik qarashlar mavjud edi. Chunonchi, professor H.Zarifov qayd qilib o'tganidek, "qahramonlik eposi yaratilishi hokim sinflariga bog'lash nazariyasining tarafdorlari 30-yillarda Rossiyada, shuningdek, barcha respublikalarda bor edi".

Hamid Olimjon folklorga munosabat masalasida keskin tortishuv ketayotgan ana shunday bir damda tadqiqotchi shoir sifatida dostonlar savodsiz xalq tomonidan emas, aristokratik guruhlar tomonidan yaratilgan, deb da'vo qiluvchilarga munosib ijodiy zarba berdi:

Bu hayol so'nsizdir, smon kabi teng,
Bu hayol tuganmas hech hali-beri.
Uning boyliklari umrlarga teng,
Hamon belgisizdir boshlangan yeri.

"Bu hayol" – shoir nazdida yaratuvchi xalq ruhi. Ommaning badiiy ijodkorlik ruhi-so'z san'atining boshlangan yeri va davri esa, darhaqiqat, belgisiz va noayondir. U bitmas-tuganmas va yashnab-yasharib boruvchi xazinadirki, "u sira to'xtamas, toshlar doimo, qilib bo'larmikin uni hech bayon?"

She'ring ikkinchi qismida xalq dostonlariga har doimo jon baxsh etuvchi o'lmas mavzulardan biri muhabbat mavzusi kuylangan. Bu kuyda o'zbek she'riyatida

ishqiy she'rlarnig gultojini yaratgan H.Olimjonning sozi kuychining hayoli bilan jipslashib – tutashib ketadi:

Ayriliqqa tushib yig'lar ikki yor,
Birisi intizor va birisi xor.
Sabrlar tugadi, sindi kosasi
G'am bilan siyraydi guldayin diydor
Osmon kurshamishdir tuproq yuzini
Bahoriy dashtlarga , gul vodiylarga
Oybarchin tikmishdir qaro ko'zini.

Muallif kuychining hayoli yo'rig'iga yanada teran kirib boradi. Biz she'rning uchinchi qismida Oybachin qaro ko'zini tikkan dasht va vodiylar qo'yniga kirib boramiz. Shoirning doston, ertak va afsona yaratuvchilar maishatini, sarguzashtlarga to'la sayyor chorvadorlik amolini ko'rsatadigan quyidagi misralariga e'tiborni qarataylik:

Bunda na uy bordir, na tom, na devor,
dalada o'tadi qish, bahor va yoz.
Tog'larda yo'lchini ajaldan saqlar,
Ko'llardan "qag'olab" uchib chiqqan g'oz.
Dalani tutadi yilqilar, qo'ylar,
Baxmaldan yopingan o'tovlar, uylar.

Qirq kecha, qirq kunduz tinmayin o'tar
Boyvachcha o'g'ilga atalgan to'ylar

Bu misralarni o'qigan sayin xalq dostonlarining epik olami ko'z o'ngimizda to'laligicha jonlana boshlaydi. Ko'chmanchi o'zbek urug'larining hayoti o'zining

tarixan murakkabligi bilan, "oltoychalik yo'lda qolgan sho'r elning" ko'rgan sitamlari bilan yo'g'rilgan holda namoyon bo'ladi:

Qora bulatdayin bosib kelar yov,
Alplar davra solar otlarim asov.
El chiqar, faryodi uchar ko'k sari,
Qullar isyon qilar, qo'lida kesov.

Shoir bizni kekxa moziy qaridan yana o'z hissiyotlari qo'lqiniga olib kiradi, minglar kuylagan tirik SO'Zning qudratini ta'riflaydi. Tirik so'zni ardoqlab, sozida yashartitgan otashin kuychining ham boshida yog'ilgan kulfatlar, ya'ni uning alamzada jazo otryadi tomonidan og'ir tahqirlanishi, qizining esa nomusidan ayrilishi haqida so'zlaydi.

She'ning uchinchi qismida muallif o'z uslubida barqarorlik kasb etgan kontekstual tajnis qabulini qo'llaydi. Uning vositasida mazlum ajdodlar xotirasini jam etgan epik qo'shiq va uning muhofazakori b'lgan nuroniy kuychining nurli taqdirini kuylaydi:

Endi qo'shiq hurdir, yuraklar bedor,
Qaddini ko'tardi o'lka va odam.
Qo'shiqlar mo'l bo'lsin, tetik va quvnoq,
ota zamonamiz g'azalxon bir dam.
Kuy artar bulutlar ichidan inson,
Kuy artar mardona, juvon hayotga.
Kuy artar lochinlar o'lkasi- osmon,
Ota qo'shiq aytgan yetar murodga!

Shu tariqa shoir kechinmalari xalq dostonlarining ruhi bilan badiiy qorishib ketadi. Ko'rinadiki, "Kuychining hayoli" she'ri H.Olimjon tomonidan eopsning yaratilishi va jamoa tafakkuri elagidan o'tishi, sayqal topa borishi jarayonini olimona

nigoh bilan kuzatishning badiiy shahodatnomasiga aylangan. Bularning hammasi shoirning katta poetik mahoratidan dalolat bera oladi.

1937 yili yozilgan "Do'mbiraning maqтови" she'rining mazmuni ham folklarga xos poetik shakl bilan uyushgandir. Bunda xalq baxshilari repertuaridagi asosiy janrlardan biri bo'lgan termaning badiiy komponentlaridan andoza olingan. Aslida Abdulla shoir Nurali o'g'liga bag'ishlab yozilgan bu asar g'oyaviy-tematik an'anaviy termalarning avtobiografik turiga mansubdir. Hamid Olimjon terma aytuvchi baxshilar ijodini kuzatar ekan, ularning voqelikka obrazli munosabatini, emotsionallik va ekspressivlikni ta'minlaydigan stilistik prizmalarini o'rgandi. Jumladan, xalq baxshilarining termalarida barqarorlik kasb etgan tajnis san'atini qo'llab, o'z ijodida lirik qahramon tilidan do'mbiraga murojaat etadi:

So'z boshlayin endi yaxshi, yomondan,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram.
Sen qo'limda kezib o'tdim jahondan,
Yuragimning to'ri bo'lgan do'mbiram.

Ma'lumki, avtobiografik termalarda baxshi do'mbiraga murojaat qilish fonida o'z hayotida bo'lib o'tgan eng muhim voqealarni bayon qiladi. Hamid Olimjon oldida termachi baxshilar taqdiriga xos umumlashma mazmunni yuzaga chiqarish vazifasi turar edi. Shoir bu ishni qoyilmaqom qilib ado etadiki, quyidagi misralar bu mulohazani to'liq tasdiqlay oladi:

Aylansa-da rangim sariq osmonga,
Seni chaldim, xor bo'lmadim yomonga.
Qariganda yetdim yaxshi zamonga
Yovlarimga bo'ri bo'lgan do'mbiram.
Sen bor ekan, har ish kelar qo'limdan,
Sen bor ekan, hayiqmasman o'limdan.

Ming o'rgilib tole topgan elimdan,
O'tirganda so'ri bo'lgan do'mbiram.

She'ning qofiyalanishi ham an'anaviy termalar shakliga mos bo'lib, birinchi bandi a-b-v-b ko'rinishda, qolgan to'qqiz banddagi qofiyadosh so'zlar esa a-a-a-b shakliga ega. Har bir bandning so'nggi misrasida do'mbira shakliga aytilgan "yuragimning jo'ri, bilagimning zo'ri, qulligimda cho'ri, yovlarimga bo'ri, o'tirganda so'ri, besh barmoqning sho'ri, ko'zlarimning nuri, gulzorimning huri, dushmanimning go'ri" singari sifatlar keltira olgan. Bundan H.Olimjon she'ri xalq termalariga taqliddan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Aytib o'tilganidek, H.Olimjon o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy-estetik maqsaddan kelib chiqib, original mazmunni she'rxonga yetkazishda xalq termalarining shakl imkoniyatlaridan keng foydalana olgan. Bu o'rinda mazkur she'rda kuzatiladigan yozma adabiyotga, xususan H.Olimjon uslubiga xos muhim bir xususiyat-anadiplosis (badiiy takror) san'ati to'g'risida to'xtalib o'tish joizdir. YA'ni yuqorida "sen bor ekan..." birikmasi banddagi har ikkala misraning boshlanishida takrorlanib kelgani singari, bunday holatni she'ning ikkinchi, uchinchi, yettinchi, sakkizinchi va o'ninchi bandlarida ham kuzatish mumkin. Masalan:

Sening bilan so'z bermadim men yovga,
Sening bilan birga bordim har ovga.
Sen dang'illab olib bording Moskovga,
Ko'zlarimning nuri bo'lgan do'mbiram.

Shunday qilib, "Do'mbiraning maqtovi" she'ri H.Olimjonning folklorga munosabatini oydinlashtirishda muayyan tasavvur beruvchi yana bir xalqchil asar hisoblanadi.

"Shodiyona" deb nomlangan boshqa bir she'r esa shoirning yozma adabiyot qo'yniga xalq ijodiyoti an'analari bilan oziqlangan holda kirib kelganidan dalolat

beradi. O‘n besh yashar H.Olimjon 1924-1927 yillarda Samarqandda ”Zarafshon” gazetasiga ilova tarzida nomuntazam nashr etilgan ”Mashrab” adabiy-satirik jurnalining omma orasida olib borgan targ‘ibot ishlarida quvonadi. Bo‘lajak shoir ”Uchqun” taxallusi bilan mazkur jurnal sahifalarida tez-tez chiqib turganligini adabiy-badiiy manbalar yana bir bor tasdiqlaydi.

Albatta, qaynoq kurashlar jabhasiga kirib kelayotgan boshlovchi shoirdan yuksak badiiylik talab etib bo‘lmas edi. Shunga qaramay H.Olimjon masalaga intellektual darajasida yondashib, 20-yillar matbuoti ruhiga mos , ayni vaqtda hamidona tuyg‘un va xalqchil she‘rlar yaratadi.

Shoirning ”Yigitlarni frontga jo‘natish” she‘ri ham folklor ruhi bilan sug‘orilgan asar sifatida diqqatimizni jalb qiladi. H.Olimjon ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridanoq xalq oldidagi fuqarolik va ijodkorlik mas’uliyati chuqur his etib, Vatan chaqirig‘iga hamohang jangovor she‘rlar yarata boshladi. Chunonchi, ”Yigitlarni frontga jo‘natish” she‘rining g‘oyaviy mazmuni onaning vokzaldan jangga jo‘nat ketayotgan o‘g‘liga qarata aytgan so‘zlarini o‘sha davr onalari – hozirgi momolarimizning, Vatanning da’vatnomasiga aylantirishga qaratilgan. Asarning ta’sir kuchi, g‘oyaviy – estetik quvvati ana shu da’vatnomasiga singdirilgan. Shuning uchun shoir she‘rning beshdan to‘rt qismini onaning jangovor so‘zlari uchun ajratadi. Binobarin, ona da’vatnomasiz mazkur asar teran g‘oyaviylikdan holi bo‘lgan quyidagicha voqeaband she‘rga aylangan bo‘lar edi:

Poyezd tayyor jo‘namoqqa,

Vokzal to‘la yigitga:

Ona bu kun kuzatadi,

O‘z o‘g‘lini frontga.

Yigit qasamyod qiladi,

miltiqni qo‘lga olib.

Paravoz ham qichqiradi,

poyezd tushadi yo‘lga.

Ona yo‘lga tikiladi:

“Bolam, yo‘ling bo‘lsin oq...”

Poyezd yo‘ldan yo‘qolguncha

Tikiladi u uzoq.

She‘rning g‘oyaviy mazmuni xalq dostonlaridagi onaning epik qahramon – biror botirning jangga jo‘natishda aytadigan nasihatlariga juda o‘xshash. Bu H.Olimjon o‘z asarining jangchilar ruhiyatiga monand bo‘lishi, qolaversa, she‘r matnning ular tomonidan yodlab olinib doimo dilda saqlashlari uchun qulaylik tug‘dirishga harakat qilinganligi bilan izohlanadi. Onaning so‘zlari xalqona olqishlar, maqol va turg‘un birikmalardan tashkil topgan. Masalan:

Xayr, o‘g‘lim, oq yo‘l bo‘lsin,

Xayr, ko‘zim qorasi,

bilkim, jangda bilinadi

Mard yigitning sarasi

Bandidagi mazmun faqat folklorga xos vositalar (“Oq yo‘l bo‘lsin”, “ko‘zim qorasi” birikmalari, “mard maydonda sinaladi” maqoli) yordamida yuzaga chiqqanligini ko‘rsatadi.

Demak, Hamid Olimjon o‘z ijodida, ayniqsa she‘riyatida xalq tilining eng ta’sirchan formalarini topib, ulardan mahorat bilan foydalangan, faol ishlatmaydigan jonli til faktlarini estetik hodisaga aylantira bilgan. Masalan, “bergan sutim harom bo‘lsin” degan qarg‘ish aytimini olaylik. Bu birikma tilimizda iste‘mol darajasi jihatida juda passiv. Onalar bu birikmani farzandlaridan dilozorlik ko‘rib, xo‘rlanib, nochor ahvolda tushganlarida ham aytmaydilar, bunga chidaydilar ham. Ammo farzandlar elning yuziga oyoq qo‘yib, undan yuz o‘girsalar, xoinlik yo‘lini tutsalar, har qanday mehribon ona ham ularni “bergan sutlarim harom” deya qarg‘ashi tabiiy. Hamid Olimjon xalq hayotining bilimdoni sifatida bu og‘ir qarg‘ishni onaning tilidan jangchi o‘g‘lining jangga ish berib, botir degan nom olib, Gitlerni yengib qaytishiga shart qilib qo‘yadi.

Bu shartning jangchi o'g'il tomonidan qanday qabul qilganligini shoirning mazkur asar bilan ketma-ket yozilgan "Xat" she'rida ham istifoda etiladi.

Folklorona optimizm va ko'tarinkilik, mubolag'ador tasvir galda she'r tilining o'ta xalqchilligi, sodda va o'ynoqligi zamin yaratgan. Chunonchi, jangchi qahramon "odamxo'r" bilan olishib, "uning qonli tug'yonidan" Vatanni ozod qilmoq uchun afsonaviy kuch-qudratini namoyon etadi:

Daxshat bilan bir o'taman
Tepasidan burgutday
Yomg'ir kabi o'q yog'dirsam
To'kiladi u tutday.
Yuragini yashin kabi
Doim yorib o'taman,
Daryo bo'lib toshaman-u
O'z qa'ringa yutaman.

Bu misralar bugungi zehnli zamondosh kitobxon uchun ertakday tuyulishi mumkin. Ammo uning ongi ertaklar bilan uyg'ongan, Alpomish va Go'rog'lilarday bo'lishni orzu qilgan jangchilar avlodi uchun real ta'sir kuchiga ega edi. Zotan H.Olimjon she'ridagi jangchi obrazini xalq og'zaki ijodidagi epik qahramonlar – botirlar kabi fidoiy va chabdash qilib yaratgan. Asar nihoyasida jangchi o'zini frontga yo'llagan mushtipar ona va Vatan oldida yana bir bor ont ichadi:

Ont ichaman, yer yuzida
Qolsa fashist degan nom.
Ona o'zim iqormanki,
Bergan sutlaring harom.

Lirik qahramon-da'vatkor ona o'g'lini xalq asrlar mobaynida tildan qo'ymay o'ylab kelgan botirlar singari jangga borib "yigitlar boshi bo'lish"ga, "ot qo'yib maydonga kirib", "xalqning yovlariga otgan bosh yorar bir toshi bo'l"ishga undaydi:

Yovga san o'tkir qilich sol,
Bag'rini qilg'il yaro,

Yerda ham osmonda quvlab
Boshiga sol mojaro.
Ol qasos, yerlarga sanchib
Qil uni motamsaro.
Yovni yenggan pahlavonning
Nomi ketsin xalq aro,
Qahramonim, arslonim,
Mehribonim, bo‘l omon!

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan va baholi qudrat qisqacha tahlil etilgan “Kuychining hayoli”, “Do‘mbiraning maqtovi”, “Shodiyona”, “Yigitlarni frontga kuzatish”, “Xat” va “Bo‘l omon” she‘rlarini bitta umumiy xususiyat-xalqona ifoda usuli birlashtirib turadi. Bunga bunga folklor motivlarini qayta ishlashdek mazmun hodisasini emas, balki original mazmunga “libos” qilib olingan xalq ijodiyotiga xos poetik vositalarni nazarda tutmoqdamiz. Bir vaqtlar adabiy jarayonda mohir yozuvchi T.Po‘latov folklorlardan ijodiy o‘zlashtirishdagi bunday jarayonni “o‘qpoya” deb atagan edi. Darhaqiqat, yuqoridagi she‘rlarda H.Olimjon g‘oyaviy-estetik konsepsiyasini “o‘qpoya” deb tasavvur qilsak, folklorga xos badiiy vositalar uning “qobig‘i”dir. O‘qpoya bilan qobiq organik birikib o‘sib rivojlangani singari H.Olimjonning folklorona she‘rlarida ham ana shunday tabiiy mutanosiblik kuzatiladi. Bu, shubhasiz, san‘atkorona iste‘dod bilan qo‘lga kiritiladigan muvaffaqiyat shoir ijodiyotiga xos ijodiy-uslubiy xususiyatdir.

Shoir ijodining boshlang‘ich yillarida yaratilgan “Qishloq qizi” he‘rida folklordan foydalanish yuqorida o‘rganilgan asarlarga nisbatan hiyla o‘zgachaligi bilan diqqatni tortadi. Bu she‘rda folklorga xos poetik tasvir vositalari “qobiq” vazifasini o‘tamaydi, muallif bu gal folklorona shaklga emas, motivga, ya‘ni mazmun hodisasiga murojaat etadi. Fikrimizni dalillash uchun yana uning ijodidagi ayrim she‘rlarga e‘tibor qarataylik:

“Baland tog‘ ustida bir qizni ko‘rdim,
O‘zi hur, lablari qirmizni ko‘rdim.

Jadallab bordi-u, bir so‘z aytay deb,
Ko‘zi uyquda bo‘lsa uyg‘otay deb”.

H.Olimjon mazkur qo‘shiq-epigraf mazmunini yangicha g‘oya bilan boyitadi va zamonaviy asarga aylantiradi.

Feodal qishlog‘i jaholat va madaniyatsizlik makoni edi. Unda necha minglab ”o‘zi hur, lablari qirmiz” qizlar bir umr qora chimmat ichida yashab, erk va ma’rifatdan yiroq edilar. She’r qahramoni tog‘lik qizni hayotda ”uyg‘ongach” tafakkuridagi mustaqil fiklari bilan ”ko‘zi ochilgan” holda uchratib suyunadi. Sharqning mazluma xotin-qizlari o‘z haq-huquqlarini taniy boshlaganlaridan mamnun bo‘ladi:

Ajab hol, tongda bordim uyg‘onibdir,
Xurofot, eskilikdan jirkanibdir,
Qo‘lida g‘uncha gullar to‘lg‘onibdir,
Bir dam erk bizda erkan ul bilibdir.

Shu tariqa muallif xalq qo‘shig‘i mazmunidan o‘ta ustalik bilan mohirona foydalanib yangicha ruhdagi hayotiy voqeylikni tarannum etuvchi asar yaratadi. Bu asarda, ko‘rinib o‘tilganidek, asrlar mobaynida ”ko‘zi uyquda” bo‘lgan o‘zbek xotin-qizlarining sobiq sotsialistik hayot jabhalariga faol qadam qo‘yishi kuylanadi. She’rda tasvirlangan qishloq qizi bu jarayonning suratini tezlashtirishni istaydi, binobarin, lirik qahramonga qarata shunday deydi:

Dedi:

O‘rtoqlarim ham chiqsin erkka.

Shuning-chun tez yeting bizga ko‘makka.

H.Olimjon she’riyatida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish usullarini kuzatish jarayonida ularning yana bir tomoni ko‘zga tashlanadi. Bu – folklorning eng uvoq ko‘rinishlaridan bo‘lgan, kichik janrlari bo‘lmish maqol va matallardan foydalanishdir. Bu usul yuqorida ko‘rib o‘tilgan folklorona shakl elementlaridan yoki birorta motivdan foydalanishdan hiyla farq qiladi. Masalan, shoirning ”baxt to‘g‘risida” she’rini olaylik. Xalq orasida ”har kim o‘z rizqini yer”, ”Har kim taqdir

qilinganini oshar” kabi maqollar mavjud. Folklore xazinasidagi boshqa yuzlab maqollar singari bularda ham chuqur mazmun soda va lo‘nda ifodalangan. A.Oripov mana shu maqollar mazmunidan kelib chiqib “Dunyoni qizg‘anma” she‘rini yaratdi. Bizningcha, bundan yarim asr muqaddam “Baxt to‘g‘risida” she‘rining yozilishiga ham maqollar mazmuni turtki bo‘lishi mumkin. Negaki, H.Olimjon qalbida o‘zining nurli toleidan shodumonlik hislari to‘lib-toshgan edi. Bu hislar asosan xalqning yaqin o‘tmishidagi qora kunlari bilan bugungi baxtli taqdiri va porloq kelajagi haqidagi mushohadalar assotsiatsiyasidir. Falsafiy mushohadalarning badiiy-estetik hodisaga aylanishi, muayyan mantiq ipiga tuzilishi uchun esa qandaydir sabab kerak bo‘ladi. “Baxt to‘g‘risida” she‘ri aftidan, qaynoq poetic ehtirolarning yuqoridagi maqollar mazmuni ta’sirida tugal ifodasini topgan ko‘rinishidir.

Har kimga bir “noni nasiba” –
Parrandalar o‘z haqqin tilar.
Ko‘pni ko‘rgan qari dunyoda
Baxt axtarib ko‘plar o‘tdilar.

Inson hamma vaqt o‘ziga atalgan nasibadan bahramand bo‘la oladimi?

Shoir shunday savolni qo‘yar ekan, inson hayotda beriladigan rizq-nasiba deganda, avvalo, erk va baxtni tushunadi.

Baxt topilmas hech bir zamonda,
El qur bo‘lsa, bo‘lsa yalang‘och.
Jannatlarni yaratgan odam
Natijada o‘zi qolsa och.

Lirik qahramon ”noni nasiba”sidan bahra olib xursandchilik bilan kundalik baxtiyor hayot kechirayotganidan quvonadi. Uning kelajagi ”dunyo-dunyo armon” va ”asrlarning muhtojlik toshi”dan xalos etilgan. Chunki u yashayotgan ”elini quchgan mangu bir bahor”.

Quvonch shulkim, tole yor bo‘lib,
Baxtin topgan elni ko‘roldim.
Asrlarning qayg‘usin qarg‘ab

Shodlik va baxt kuyini chaldim.

Ko‘ramizki, oddiy xalq maqoli hamidona surgaga to‘lgan original asarning tug‘ilishi uchun poetik omil bo‘lgan. Bunga mashtarak holatni shoirning o‘zga asarlarida ham ko‘plab kuzatish mumkinki, biz bu o‘rinda yuqoridagi mulohazalar bilan cheklanamiz.

Demak, H.Olimjon lirik asarlarida folklorga murojaat etish asosan xalqona poetik shakllar, folklor asarlaridan o‘zlashtirilgan motivlar, shuningdek, maqol va matallardan foydalanish orqali amalga oshgan ekan. Zotan, Homil Yoqubovdek ustoz “shoir lirikasiga folklor obrazlarning urug‘larini sohib, avaylab parvarish qilib yangi zaminda qaytadan o‘stirdi”, deb yozganida to‘la haq edi, deb o‘ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, folklor H.Olimjon lirikasiga teran falsafiylik, jo‘shqin optimizm va jozibador o‘ynoqilik baxsh etuvchi badiiy fakt bo‘lib xizmat qilgan. Navotor shoirning lirik she‘rlariga xos ana shu an’anani biz bugungi kunda o‘zbek she‘riyatining E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, H.Xudoyberdiyeva, U.Azim va boshqa vakillari ijodida yana bir bor kuzatamiz. Demak, H.Olimjon o‘zbek she‘riyatining tongotarida asriy og‘zaki ijod namunalari bilan omuxtalashtirishda muhim hissa qo‘shgan, bunday ijodiy jarayon hozirgi she‘riyatimizda ham o‘zgacha uslubda hamon davom etmoqda, deyish mumkin.

1.2.Hamid Olimjonning xalq og'zaki ijodidan foydalanish mahorati

H.Olimjonning folklor ruhida yaratilgan liro-epik asarlari bugungi kunda ham estetik qimmatini yo'qotmaganligi bilan barobar, o'z davrida juda muhim adabiy-tarixiy vazifani ado etgan edi. XX asrning 30-yillari dostonchiligiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda, monografiya va maqolalarda masalani bu tomoniga juda kam ahamiyat berilgan. Ma'lumki, o'sha yillarda amalga oshirilgan vazifa yoppasiga savodsizlikni tugatish ishi xalqimiz ongida katta o'zgarishlar yasadi. Uning adabiyot va san'at sohasidagi alohida hosiylari shu bo'ldiki, asrlar mobaynida tinglovchi bo'lib kelgan keng xalq ommasi-o'quvchi, ya'ni kitobxonga aylandi. Biroq uning doston va ertak voqealari ta'sirida barqarorlik kasb etgan ko'nikmalari yozma adabiyot qonuniyatlarini, ayniqsa, Yevropa, rus va o'zga qardosh xalqlar adabiyotlari ta'sirida yaratilgan yangicha uslubdagi asarlarni qabul qilishga tayyor emasdi.

(Bu haqda A.Qodiriy "O'tkan kunlar" romani tanqidi yuzasidan bildirilgan fikrlarni eslaylik). H.Olimjon kitobxonlar dilidagi ma'naviy ehtiyojini birinchilardan bo'lib to'g'ri anglab va his qilib o'z asarlarini maksimal darajada xalq hayoti bilan bog'lashga intildi. Bu fikrni uning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "O'zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish va nihoyat, umuman aytganda, o'zbek sovet adabiyotini chin ma'noda xalqchil qilish uchun folklorning ahamiyati buyuk bo'lur".

Ana shu intilishlar samarasi va ijodiy izlanishlari natijasida shoirning bir qator ballada va dostonlari "chin ma'noda xalqchil" asarlar darajasiga ko'tarildi. Xususan, "Jangchi Tursun" balladasi shunday asarlar sirasiga kiradi. Xo'sh, bu asarda ishtirok etgan folklor unsunlari nimalardan iborat?

Bu o‘rinda avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, “Jangchi Tursun” balladasi shoir tomonidan bir necha lirik she’rlarda “razvedka” qilib ko‘rilgan jangchi o‘g‘il va ona munosabatlarining badiiy takomilidir. Zero, asarning g‘oyaviy-estetik ta’siri kuchi asosan onaning so‘zlariga jalb qilingan. Professor H.Yoqubovning to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Xalq og‘zaki poetik ijodi ritmi bilan yo‘g‘rilgan ona nutqi farzandi haqida eshitgan xabar bilan boshlanib, ketma-ket o‘g‘liga berilgan otashin savollarga va nihoyat qat’iy buyruqqa, qalb amrining nakaziga aylanadi”.

Biz o‘z oldimizga qo‘ygan masalaga ustoz domla ham juda to‘g‘ri yondasha olgan, ya’ni H.Olimjonning “Jangchi Tursin” balladasida folklordan qay usulda foydalanganini aniqlab bergan. Darhaqiqat, nazarimizda, bu asarda folklorning shakliiy komponentlaridan unumli foydalangan. Jumladan, ona nutqining yarmi xalqning jonli tiliga xos ritorik so‘roq shaklida, ikkinchi yarmi esa hukm tariqasida ifoda etilgan. Onaning so‘roqlari vatani, el-yurti va oilasi sha’nini muqaddas deb biluvchi har bir kishining yuragida oriyat hislarini qo‘zg‘atuvchikuchga ega. Bu masalada ikkilanuvchilar yuragiga onaning so‘roqlari o‘qday qadaladi:

Ko‘chadan o‘taginingda,
Yerga qarasinmi el?
Ikki ko‘zingga qarab
Tuproq to‘zg‘isinmi el?

Mard o‘g‘lonlar elning faxri va ishonchi. Ular ko‘ksini yovga qalqon qilib doimo elni ofatdan saqlab kelganlar. Shuning uchun ham jangda ikkilanayotgan Tursunga el o‘g‘lonlarining ana shu udumini eslatadi:

Yigit bo‘lib dunyoda
Shu uchun yurganmiding?
O‘z yurtidan chekingan
Botirni ko‘rganmiding?

Ona nutqining ikkinchi qismida, yuqorida aytilganidek, ritorik so‘roq o‘rnini hukm egallaydi. Shoir shu o‘rinda folklarga xos muhim bir detalni qo‘llaydiki, u

balladani badiiy salmog'ini juda yuqori darajaga ko'taradi. Bu qonli ko'ylak detalidir. U ona Tursun oldiga qo'yayotgan talablarning kulminatsiyasi sifatida diqqatni jalb qiladi.

H.Olimjon xalq og'zaki ijodiyotining bebaho namunalaridan saralab olgan badiiy jamg'armalari hech bir mubolaga'asiz aytish mumkinki dramatik asarlari to'qimasiga ham singib ketdi. Bu hol ikkinchi jahon urushi davri o'zbek adabiyotida folklorga bo'lgan yalpi qiziqishning xarakterli namunalaridan biri sifatida izohlanadi. Chunonchi, "Muqanna" dramasi g'oyaviy-kompozitsion negizi quyidagi uch asosga: tarixiy haqiqatga, badiiy to'qimaga va xalqning Muqanna haqidagi to'qigan rivoyatlariga bevosita tayanilgan.

Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'olonlarining arab istilochilariga qarshi olib borgan kurashi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar H.Olimjon dramasi uchun o'qpoya vazifasini o'taydi. Dramaturg "O'z asarini yozishdan avval tarixiy adabiyotni sinchkovlik bilan o'rgandi. Uning drama uchun to'plagan materiallari orasida Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarining tarjimasi, G.A.Ibrohimovning "Islomning kelib chiqishi va sinfiy mohiyati" kitobi", "Qur'on" su'ralarining ruscha tarjimalari, shuningdek, o'zbek xalqining kelib chiqishi, olovga sig'inish, buddizm va hokozolarga oid konspektlar ham bor".

Muqanna boshlagan isyon milliy-ozodlik harakatigina bo'lib qolmay, balki chet el ekspansiyasini barbod qilib, markazlashgan yirik davlatni vujudga keltirishga qaratilgan izchil siyosat ham edi. Hoshim Ibn Hakim bunga erishish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Jumladan, yuziga niqob tutib olgan, ommani o'z ortidan ergashtirish maqsadida turli xil fokuslar ko'rsatgan va h.k. bu haqda Narshaxiyning yuqoridagi asarida ma'lumot beriladi. Biroq Narshaxiy Muqanna haqida katta zamondoshlaridan eshitgan ma'lumotlarni qayd etish bilan cheklangan. Binobarin, Narshaxiy tasviridagi Muqanna isyonkor tarixiy arbob sifatida emas, ko'proq avantyurachi soxta payg'ambar tusini olgan. Shuning uchun bizning fikrimizcha, Narshaxiyning Muqanna haqidagi ma'lumotlarini aniq fakt deb bilishdan ko'ra

muayyan darajada xalq ijodiyoti bilan yo'g'rilgan ma'lumotlar deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Hamid Olimjon ibn Hakim shaxsiyatiga dialektik nutaqi nazardan yondashadi. Uning qalamida Muqanna tarixiy haqiqat va badiiyat mezonlariga muvofiq tajassumini topadi. Yozuvchi intellekti obraz estetikasini belgilagani singari, H.Olimjon ijodiy fantaziyasining kengligi, tarixiy arboblarning va hodisalar haqidagi tushunchasi drama muvaffaqiyatini ta'minladi.

Asar voqealarini harakatga keltiruvchi obrazlarning asosiy qismi bevosita H.Olimjon fantaziyasining mahsullaridir. Dramaturg Muqanna bilan Saidbattol, Jaloyir va ibn Maoz kabi islom reaksiyalari o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy yechimini ko'p yillik ijodiy izlanishlar natijasida o'ylab topadi. Bu-Saidbattol-Guloyin-Muqanna uchligi edi. Shu triada bilan bog'liq muhabbat mavzui sho'irga kalavanning uchi bo'lib xizmat qiladi. Natijada, asarning xomaki badiiy qurilmasi o'zgarib, ekspozitsiya Movarounnahr go'zali Guloyin oilasining tasviri bilan boshlanadi. Guloyin- oddiy hunarmad Otashning qizi. Uning faoliyatini kuzatar ekanmiz, Hamid Olimjon islom dini qabul qilinguniga qadar O'rta Osiyoda yashagan xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini naqadar to'g'ri tushunganiga amin bo'lamiz. Ma'lumki, islomga qadar ikki daryo oralig'ida yashovchi otashparast elatlarning kundalik turmushida xotin-qizlarning mavqei baland edi. Garchi matriarxat davrida shakllangan erkaklar ustidan hukmronlik yakka (monogam) nikohga o'tish kabi muhim qadamlar tufayli allaqachon boy berilgan bo'lsa-da, olovni saqlash, uni muqaddaslashtiruvchi marosimlar ayollar, asosan jamoa onaboshilari tomonidan uyushtirilgan. Xususan, qozoq folklorshunosi K.A.Kaskaboyevning yozishicha, "O'tov" degan turkiy so'zning etimologiyasi "O't-olu" degan ikkita mustaqil so'zning qo'shilishi, ya'ni jamoa a'zolari sig'inadigan muqaddas olovni o'choqda o'chirmay o'tiradigan onaboshi tomonidan yangi makonga ko'chik o'tayotgan kishilar guruhiga (yosh oila yoki oilalarga) olovning bir qismini tantanali ravishda taqdim etishi bilan bog'liq turkiycha udum hisoblanadi.

H.Olimjon dostonda Guloyin obrazini tarixiy haqiqatga mos ravishda hurfikrli qiz sifatida tipiklashtiradi buni quyidagi misralardagi fikrlar to‘liq tasdiqlaydi:

Na otashdan, na Muhammad dinidan
Foyda ko‘rgan bir kimsani bilmayman
Shuncha yillar otashgohga topindim
Va bilmadim ilohim kim, tagrim kim
Qayg‘usi yo‘q biror kunni ko‘rmadim.
Biror soat men baxtiyor bo‘lmadim.
...ixtiyorni bersang agar menga san,
Ozodlikka topinardim yolg‘iz man.

“Ozodlikka topinish” Guloyinga yuragidagi iztiroblarni tinchlantiruvchi mashg‘ulot, haqiqatga intilish yo‘li bo‘lib ko‘rinadi. Biroq unga munosib ma’naviy yo‘lboshchi kerak edi. Muallif mana shunday ekspozitsiya orqali mantiq ipini bosh qahramonga bog‘laydi. Guloyin o‘zi orzu qilgan yo‘lboshchi nomini ilk bor Girdakning og‘zidan eshitadi:

Hoshim ibn Hakim degan biro dam,
Xo‘rlanganlar uning uchun muhtaram.
...Arab aytgan payg‘ambardan ham baland
U odamu, odamlarga rahnamo,
Boshin silar qayda bo‘lsa benovo.
Faqirparvar yo‘lboshchi u, va ammo
Dushman bo‘lsa ko‘rinmasin ko‘ziga
Uni ko‘rgan dushman kelmas o‘ziga.

Saidbattol tomonidan xo‘rlangan Guloyinning Muqanna bilan topishishi va arab bosqinchilariga qarshi otashin kurashchilar safidan o‘rin olishi va qahramonona halok

bo'lishi bilan bog'liq voqealar H.Olimjon ijodiy mahoratining qirralarini namoyon qila olgan.

Aytib o'tilganidek, folklor ruhi mazkur drama g'oyaviy-badiiy butunligining uch muhim belgisidan biridir. Asarda xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridan shoir asosan personajlar nutqini dalillash maqsadida foydalangan. Dramaturg jumladan, Muqanna haqida bundan 12 asr muqaddam to'qilgan, keyinchalik esa qisqa mazmuniga saqlanib qolgan rivoyatlarni mohirona qo'llaydi. Masalan qul Otashning tilidan Muqannaning ana shunday rivoyatomus ta'rifi keltiriladi:

Ko'p gaplar bor, marvlik ekan, niqobdor,
Ochmas ekan odamlarga yuzini,
So'ylamoqda hamma uning so'zini,
Xudo ham man mening o'zim payg'ambar
Deya emish so'zlaganda har safar.

Dramada shoir musurmon mifologiyasiga xos usullardan ham unumli foydalanilgan. Bunda muallif bir tomondan, personajlar qiyofasini ochishga urinsa, ikkinchi tomondan, islom aqidalari haqida so'z yuritadi. Guloyin o'zini iymon keltirishga majbur qilayotgan arab ruhoniysi Jaloyirga "Seni yo'qdan yaratgan kim, aytib ber?! Dunyo o'zi paydo bo'ldi qayoqdan?" – degan haqli savolni beradi. Shunda Jaloyir ota-bobolari sig'inib kelgan otashparastlikni ham inkor etganda hurfikrli qizning ensasini qotiruvchi afsonani so'zlaydi:

Tingla meni iymon keltir, dunyoni
Oллоh rosa olti kunda yaratdi.
U olti kun bu jahonning olti ming
Yilichadir, har soati yilga teng.
Yakshanba va dushanba kun da'fatan.
U yerlarni barpo qildi yo'qlikdan

Undan so‘ngra tashlab buyuk nazarni
Seshanba kun barpo qildi tog‘larni.
Chorshanba kun og‘ochlarga, suvlarga
Navbat yetdi, jon kirg‘izdi ularga.
Payshanba kun barpo qildi osmon,
Arshi-A’lo degan oliy bir makon
So‘ng jumaga nazarini qaratdi,
Ham o‘sha kun yulduzlarni yaratdi.
...Shanba kuni olam topdi bir yakun
Olloh uni yaratishni tugatdi.

Shoir Muqanna tilidan so‘zlab, bu afsona mazmunini puchga chiqaradi. Shu bilan birga xalq xaloskorining donishmandona qiyofasini gavdalantiradi:

Bu ko‘zlarni ko‘r aylagan yolg‘on, din –
Olti kunda paydo bo‘ldi, ofarin!
Tushunmadim menga anglat ulug‘ zot,
U qaysi kun qullikni ijod?!

Yoxud ruhoniy Jaloyir nutqida musurmon mifologiyasiga xos bo‘lgan, xalq orasida keng tarqalgan va hozir ham saqlanib qolgan bir motiv keltiriladi. Bu nutq xalqni Muqanna ortidan ergashmaslikka qaratilgan:

Ahmoq bo‘lmang va ishonmang sira ham,
Bu kofirdir, joyi uning jahannam
Olov uni chodir kabi o‘raydi
Azroyillar undan hisob so‘raydi.
O‘t ichida qichqirganda jon sarak,
Tepasida erib turgan ma’dandek
Qaynoq suvni paqir-paqir to‘karlar,
Yuzi kuyar, ko‘zi kuyar badanlar.

Darhaqiqat, bunday afsonalar islom targʻibotchilari uchun avom xalqini zulm iskanjasida tutib turishning ming yillar davomida sinalgan maʼnaviy psixologik kurashiga aylandi.

Drama Muqanna haqida rivoyatlar va “Qurʻon”ga kirgan afsonalardan tashqari bir qator maqollar ham qoʻllangan. Ularning estetik funksiyasi ham bevosita qahramon nutqini individuallashtirishda qaratilgan. Bu maqollar poetik sintaktik talabi bilan stilistik jihatidan oʻzgartirilgan. Ammo uning mantiqiy, asosi, emotsional-ekspressiv jihatlari toʻliq saqlangan. Masalan, Guloyin otasi bilan suhbatda yoshligidan otashga sigʻinishi oʻrgatganligini taʼkidlar ekan,

”Qancha baland uchsa hamki chumchuq, qush
Uyasida oʻrganganni oʻqirmish”, - deydi.

Battol tilidan keltirilgan quyidagi maqol esa uning xotin-qizlarga past nazar bilan qarovchi ortodoksal islomning ashaddiy himoyachisi sifatidagi asl qiyofasini ochib beradi:

Xotinlarning sochi uzun boʻladi,
Sochi uzun aqli qisqa boʻladi.
Shu tushuncha hokim bizning tomondan,
”Noqusul aql” deb yozilgan qurʻonda.

Guloyinning Muqanna oldida tiz choʻkib, tavba qilgan Battolni oʻldirmay tirik qoldirish toʻgʻrisidagi taklifi qoʻzgʻolonchilar oʻrtasida shubha va norozilik uygʻotadi. Buni muallif zarafshonlik dehqon Hakimning tilidan loʻnda qilib ifodalaydi:

It vafo-yu, xotin jafo deganlar

Drama voqealari kulminatsiyasida makkor Battol bilan toʻqnash kelgan Guloyin unga qarata shunday deydi:

Qanday paydo boʻlding xoin koʻzimga!
Koʻr asoni yoʻqotadi bir marta,

O'ldirmasam chiqmayman hech alamdand.

Yoxud asar finalida qul otash qamalda qolgan kuyovi Muqannaning ruhini ko'tarish maqsadida shunday nasihat qiladi:

Esdan chiqib ketar og'ir bu ahvol,
Bir maqol bor: yaxshi niyat yarim mol.
Oyning beshi yorug', beshi qorong'u,
Xalqdan qolgan juda eski hikmat bu.
Noumid bo'lmoq o'g'lim senga noloyiq.

Muqanna:

Ha noumidni shayton deydi xaloyiq!

Bunday maqollarning xilma-xil namunalarini Girdak va boshqa qo'zg'olonchilar nutqida ham kuzatish mumkin. Ularning barchasi personajlar tilini individuallashtirish orqali asar tilining ta'sirchan chiqishi uchun xizmat qilgan.

Ma'lum bo'ladiki, "Muqanna" dramasida qo'llanilgan rivoya, afsona va maqollar H.Olimjon tomonidan badiiylik mezonida qayta-qayta o'lchanib, asar to'qimasining istalgan joyiga tiqishtirilavermasdan xarakterlar va voqealar mantiqi taqozo etgan o'rinlardagina kiritilgan. Bunday talabchanlik va mahorat namunasini qayta kuzatish uchun shoirning "Jinoyat" dramasidan ham istagancha misol topish mumkin. Ammo bakalavrlk dissertatsiyasining hajmi bunga imkon bermasligi sababli biz yuqorida aytib o'tilganlar bilan kifoyalanamiz.

II BOB. SHOIR IJODIDA ADABIY ERTAK VA DOSTONLARNING O'RNI

2.1. “Zaynab va Omon” dostonida epiklik va an’ana talqini

Hamid Olimjon adabiy merosini o'rganar ekanmiz, shoir ijodida mumtoz she'riyat an'analari ruhida yozilgan asarlar ko'p qismni tashkil etganiga guvoh bo'lamiz. Doston ko'rinishi asarga joziba bag'ishlaydi, ta'sirchanlikni oshiradi.

O'zbek adabiyotidagi ilk badiiy doston - Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul - haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro'z”, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” kabi dostonlar ham masnaviy shaklida yaratilgan. Shuningdek, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Feruzning katta hajmli she'rlari, Muqimiyning “Tanobchilar”, Furqatning “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Nag'ma bazmi xususida”, “Vistavka xususida”, “Suvorov, “Sabog'a xitob” asarlari ham masnaviy yo'lida yozilgan. Yangi davr o'zbek she'riyatida ham ertak shaklida she'r bitish an'anasi davom ettirildi.

Hamid Olimjon ham ertak janrida barakali ijod qildi. Hamid Olimjon to'plamlaridan joy olgan “Savol”, “Javob”, “Eng gullagan yoshlik chog'imda...”, “O'zbekiston” kabi she'rlari; “Ikki qizning hikoyasi”, “Zaynab va Omon”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg' yoki Parizod va Bunyod” kabi doston va ertaklari hamda “Muqanna” she'riy dramasi masnaviy shaklida yozilgan. Shoir ijodini tahlil qilishda davom etarkanmiz, hajman kichik peyzaj-she'rlarini ham masnaviyda yozganiga

ishonch hosil qilamiz. Fikrimizning dalili sifatida shoirning 1937-yilda yozilgan “Savol” she’riga e’tibor qarataylik:

Kiyintirsam seni bahorga,
Yulduzlarni o‘rasam qorga.
Olib kelib oldingga qo‘ysam,
Ham yulduzni, ham seni suysam:
To tonggacha so‘ylasam ertak
Chechak terib etak va etak.
Oyog‘ingga keltirib to‘ksam,
Seni maqtab, ag‘yorni so‘ksam –
Shunda sening ko‘ngling to‘lurmi?..
Aytganlaring bajo bo‘lurmi?..

Bunday olib qaraydigan bo‘lsak, she’r barmoqda yozilgan. Hajman katta she’r ham emas. Shuning uchun she’rni to‘laligicha keltiryapmiz. Undagi tasvir ifoda ham sodda tarzda bayon qilingan. Fikrni bunday tasvirlashda shoir masnaviydan foydalangan va she’rning ta’sirli chiqishini ta’minlay olgan. She’r barmoqning 9 bo‘g‘inli usulida yozilgan. Qofiyalanishi esa quyidagicha: a-a, b-b, s-s,.. ya’ni bahorga – qorga, qo‘ysam – suysam, ertak – etak,..

Hamid Olimjonning “Eng gullagan yoshlik chog‘imda...” she’ri 1937 – yilda yozilgan. 16 misradan iborat bu she’r intim ruhida, unda pokiza his – tuyg‘ular qalamga olingan. Shoir hissiy kechinmalarini uzoqdan olib kelmaydi, yasharish fasli bo‘lgan bahor chogida uning qalbiga muhabbat mehmon bo‘lyapti. Uni oddiy misralarda bayon etmoqchi bo‘lganiga ham shubha yo‘q. She’rga e’tibor beraylik:

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,
Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.
Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni².

² Хамид Олимжон Ўрик гуллаганда. Шеърлар ва драма. Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 122

Barmoqda yozilgan sheʼrning qofiyalanish tartibini kuzatsak, u masnaviy janrida yozilganiga ishonch hosil qilamiz. Qofiyalanish tartibiga eʼtibor beraylik: chogʻimda – bogʻimda; bahorni – yorni, yaʼni a-a; b-b. Bundan keyingi misralar ham xuddi shunday tarzda davom etadi.

Hamid Olimjonning “Oʻzbekiston” sheʼri ham masnaviy usulida yozilgan. Sheʼrdagi biror satrni hissiz, loqayd oʻqib boʻlmaydi. Ilk satrlardanoq oʻquvchi qalbiga tuygʻular quyilib keladi. Quyidagi misralarga eʼtibor beraylik:

Vodiylarni yayov kezkanda,
Bir ajib his bor edi menda...
Chappar urib gullagan bogʻin,
Oʻpar edim Vatan tuprogʻin³.

Sheʼrni oʻqir ekanmiz, koʻz oldimizda chaman gulga burkangan, togʻlarga, undan osmonga tutashib ketgan bepoyon kenglik jonlanganday boʻladi. Ana shu manzaraning oʻziyoq qalblarni zavqqa, farahli hissiyotlarga toʻldirib yuboradi. Butun vujudimizga toza havo kirib, qalbimiz yorugʻlik va shodlikka toʻladi. Koʻzlarda, lablarda nim tabassum oʻynaydi. Inson beixtiyor kuylab yuborgisi keladi. Ilk satrlardanoq shunday kayfiyatni uygʻota olish xususiyati shoir Hamid Olimjonning yuksak isteʼdodi va badiiy mahorati belgisidir. Keyingi satrlar oʻqilgani sari oʻsha kayfiyat tobora kuchayib, mustahkamlanib boradi. Sheʼr muxlisi turli oʻxshatish, sifatlash, jonlantirish, obrazli, ramziy tasvirlar, ifodalar, ishoralar orqali yosh maʼsuma kelinchakning ikki oʻrim sochi – kokilini tarab turgan holati qiyosida Amu bilan Sirdaryoning toʻlib oqib, butun dalalarga jon bagʻishlab turgan manzarasini tasavvur etadi. Koʻm – koʻk maysalarga burkangan vodiylar goʻyo “chor atrofga gilam yoygan”dek taassurot beradi:

Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yoʻqdir bundayin koʻklam.
Togʻlardagi qip – qizil lola
Boʻlib goʻyo yoqut piyola.

³ Юкоридаги асар. 128 – бет.

Buloqlardan uzatadi suv,
El ko‘zidan qochadi uyqu⁴.

Bunday go‘zallik, tabiatga oshuftalik o‘z – o‘zidan bo‘lganicha yo‘q, albatta. Buning uchun ertra tongda, hali tabiat oq pardasini yoyib ulgurmay “ko‘zidan uyqu qochgan el” – ming–minglab fidoyi odamlarning dalalardagi mehnati, zahmati, ijodi, yaratuvchilik g‘ayrati mahsuli samarasidir. Lirik qahramon endi ana shu zahmatkash xalqning mard farzandlari ta’rifiga o‘tadi: “Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda” deb chapdast chavandozlarni, “kanal qazib” suv chiqargan botirlarni, “g‘azal yozgan shoirlar”-u “yalla aytgan kuychilar”ni, alla kuylagan juvonlar-u shirmoy nonlar yopayotgannovvoy-pazandalarni, mehmon kutib toliqmaydigan qariyalar-u yurt tinchini himoya qilib turgan askar-qo‘shinlarni yodga olib olqishlaydi. Mamlakatning obodligi ana shular tufayli ekanini ta’kidlab, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari ortida nimalar va kimlar turganini o‘quvchiga tushuntiradi. Shu bilan birga, tazod – zidlab qiyoslash san’ati orqali ushbu farovonlikning tamomila aksi bo‘lgan hodisalar, ya’ni notinchlik (“osoyish topmay”), yo‘qchilik (“somonda yotmas”), sovuqlik, yupunlik (“yopinmagay xas”) kabi yoqimsiz holatlarni eslatib, taassurotni yanada quyuqlashtiradi, tinch-u omonlik, bunyodkorlik kayfiyatini mustahkamlab, astoydil bularni asrashga, Vatanni suyib ardoqlashga da’vat etadi:

Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin,
Shunday o‘lka elga yor bo‘lsin.
Omon bo‘lsin og‘aynilari,
Omon bo‘lsin do‘stlarning bari.
Mehr qo‘yib o‘pgan sari oq,
Oppoq bo‘ldi bu go‘zal tuproq⁵.

Ko‘rinib turibdiki, she’rning so‘nggi misralari alyorlarga ulanib ketgan. Masnaviy usulida yozilgan “O‘zbekiston” she’ri Hamid Olimjon poeziyasining badiiyat, mahorat bobidagi eng ko‘rkam namunalaridandir. Unda tashbeh - o‘xshatish, qiyoslash, jonlantirish, mubolag‘a, qarshilantirish, tovushlar uyg‘unligini

⁴ Юкоридаги асар, ўша саҳифада.

⁵ Юкоридаги асар, 130 – бет.

anglatuvchi alliteratsiya, poetik takror, ta'kid kabi bir qancha badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanilgan va O'zbekistonning o'ziga xos, betakror poetik timsoli yaratilgan. SHe'ning masnaviy usulida yozilishi xalq tiliga yanada yaqinlashtirgan. Mana, she'r 75 yildan buyon go'yo yangigina yozilgandek, ohorini yo'qotmay, suyub o'qib, o'rganib kelinmoqda.

Adabiyotimizning ahamiyati shundaki, u o'zining barcha taraqqiyot bosqichida yuksak insoniy xislatlarni badiiy tasdiqlab keldi. O'zbek she'riyatini ham ana shu jarayondan alohida tasavvur etish mumkin emas. SHe'riyatimiz, xususan dostonchiligimiz o'zining hayotni, voqelikni, inson taqdirini badiiy tadqiq etuvchi xarakter bilan ham e'tiborlidir. Shunday ekan, muttasil fikrlovchi inson xarakterini yaratish, uning tafakkuridagi yangi, betakror sahifalarni ifoda etish dostonchiligimizning bosh vazifalaridan hisoblanadi.

Hamid Olimjon 30-yillarda turli mavzularda rang-barang lirik she'rlar yozish bilan birga, anchagina ballada va dostonlar ham yaratgan. Shoirning "Ikki qizning hikoyasi", "Zaynab va Omon" kabi asarlarida lirika bilan epos xususiyatlari chambarchas bog'lanib qo'shilib ketgan va yaxshi badiiy natija bergan. Shoir ijodida "Zaynab va Omon" dostoni katta o'rin tutadi. Unda Hamid Olimjon ijodining yangi qirralari va o'zbek she'riyati imkoniyatlari cheksizligi yana bir karra namoyon bo'lgan. Doston aniq hayotiy voqea asosida yozilgan. 1935-yilda o'zbek paxtakorlarining bir guruhi orden va medallar bilan mukofotlanadi. Shular orasida oddiy o'zbek qizi Zaynab obrazining prototipi Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi jamoa xo'jalik a'zolaridan biri Zaynab Omonova ham bo'ladi. Shoir 1936-yilda nishondor paxtakor qiz Zaynab Omonova bilan uchrashib "Zaynab" nomli hujjatli ocherk yozadi. Zaynab hayotini atroflicha o'rgangan Hamid Olimjonda yangi ijodiy niyat tug'iladi va "Zaynab va Omon" nomli doston (1938) yaratadi. Doston xalqona usulda, ya'ni masnaviyda yozilgan. Doston o'z vaqtida munosib baholangan⁶.

Jahon adabiyoti tarixida ikki yosh qalbning pok va otashin sevgisi haqida yozilgan asarlar juda ham ko'p. Shulardan "Yusuf va Zulayho", "Farhod va Shirin",

⁶ Yusuf Sultonov. "Zaynab va Omon", "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1941-yil, 11-mart soni.

“Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” kabi ishqiy dostonlarni eslashning o‘ziyoq bu mavzu barcha zamonlar va asrlar yozuvchilarning ijodida mustahkam o‘rin olganini ko‘rsatadi. Bularda insonning fojiali qismati, judolik va o‘lim haqida so‘z boradi. Hamid Olimjon ijodida esa mutlaqo boshqacha holatni uchratamiz. Doston quyidagi misralar bilan boshlanadi:

So‘ylab beray Zaynab va Omon
Sevgisidan bir yangi doston,
Bir zo‘r otash, bir zo‘r alanga
Ikki qalbga tutashgani ros.
Bir sevgikim jon berur tanga
Ham Zaynabu Omonlarga xos...
Bir qissakim, buning so‘ngida
Tushi emas, balki o‘ngida.
Sevishganlar topishgusidir,
Jonlar jonga yopishgusidir.

Bu “Kirish”ning siqiq, sermazmun misralarda dostonning g‘oyaviy yo‘nalishiga doir barcha fikrlar katta mahorat bilan izhor qilingan; shoirning asosiy maqsadi o‘sha davr yoshlarining yorqin obrazini yaratish, ularga “Zaynabu Omonlarga xos” sevgi haqida bir yangi doston yozishdir. Doston liro-epik usulda yozilgan, unda voqelikning epik tasviri, qahramonlar xarakterini ochib beruvchi tavsif, syujet muallifning hissiy-ta’sirli munosabati bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanadi, ya’ni Hamid Olimjonning o‘zi dostonning bosh qahramonlaridan biridir. Biz uning voqelikka bo‘lgan lirik munosabati va lirik kechinmalari orqali hayot manzaralarini yanada chuqurroq his etamiz, dostonda kuylangan mehnat romantikasi va yuksak insoniy sezgilarga to‘la ishonch hosil qilamiz.

“Zaynab va Omon” dostonida yangi inson, erkin sevgi va yangi urf-odat muammosi ko‘tarilgan va mahorat bilan tasvirlanib, hal etilgan. Asarda yangi zamon nafasi ona diyorga mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan birgalikda ifodalanadi:

Zaynab o‘sgan elning misli yo‘q,

Zaynab o‘sgan el baxtga to‘liq.
Buni ko‘rgan tez bo‘lar banda,
Buni inson bir ko‘rganida
Yuragida hech armon qolmas,
Bunga jannat tenglasha olmas.

Shoirning nazarida hamma yaxshi narsalar go‘yo ikki yoshga bag‘ishlanganday tuyuladi. Qushlarning nag‘ma-navosi ham, vodiylarning marmar havosi ham, ko‘klam, tabiat to‘qigan gilam – hammasi go‘yo ularni qutlamoqchi bo‘lyapti:

Novdalarda tug‘ilgan kurtak
Har kun to‘qir yangi bir ertak.
Bunda hamma, hamma narsa bor,
Bunda qizga tole bo‘lar yor.
Bunda orzu qozonadi ot,
Bunda sevgi yozadi qanot,
Qo‘zg‘atadi qiz havasini,
Bunda qizga sevgi darsini
Chiroyiga rang beradi gul,
O‘qitadi eng avval bulbul.
Zaynab shunda tug‘ilgan edi,
Shunda to‘lib yetilgan edi.

Bu milliy iftixor ruhi bilan sug‘orilgan misralar ko‘z oldimizda yaqqol namoyon bo‘ladi, ya’ni Vatan romantik manzarasining turli ko‘rinishlari o‘z yaxlitligi bilan, sodda, go‘zal samimiyati bilan, teran teran poetik sezgilarga boyligi bilan kitobxonni ajablantiradi. Shini doimo esda tutishimiz kerakki, bular tabiat tasviri uchun emas, balki doston qahramonlarining obrazini ochish uchun benihoya zarur . Zero, ozod va baxtli hayotga erishgan xalqning ijodiy qudrati har qanday mo‘jizalar yaratishga qodir. Shunga ko‘ra, Zaynab, Omon va ular atrofidagi kishilarning:

Agar biri yoysa qulochin,
Parvoz qilar ko‘klarga lochin.

Havodagi qushlarni tutar,
Ot chopganda yashindan o'tar.
G'oz singari qo'nar qo'llarga,
Suv oqizar sahro, cho'llarga.
Hammasi ham qilichday o'tkir,
Hammasi ham Rustam kabi zo'r.

Ular bu kuch, qudrat va ishonchga yaratuvchi erkin, ozod ish, daladagi osuda turmush, kolxozdagi ... qaynoq hayot orqali erishganlar. Mehnat azob va uqubat bo'lgan davrlar, yelkadan nafasolib ketmon chopgan kezlar abadiy unutilgan...

“Zaynab va Omon” dostonida ikki yetim: Zaynab va Omonning sevgisi tasvirlanib, insoniy muhabbatga eski hamda yangi qarashlar o'rtasidagi kurash butun murakkabligi bilan ko'rsatilgan. Shu bilan birga, asarda nikoh, oila qurish borasida inson erkiga zug'um, yigit va qiz xohishini hisobga olmaslik qattiq qoralangan.

Hamid Olimjon dostonida erkin muhabbat tasviri misolida inson hurligi, tuyg'ular daxlsizligini ulug'lagan. “Zaynab va Omon” dostoni syujetiga asos bo'lgan va obrazli tarzda aks ettirilgan konflikt o'sha vaqtdagi o'zbek turmushida ko'p uchrar edi. Dostonning asosiy konflikti bo'lmish eski va yangi qarashlar o'rtasidagi ziddiyat hayot haqiqatiga mos bo'lgani uchun asardagi obrazlar ham jonli va haqqoniy chiqqan. Dostondagi Zaynab, Omon, Sobir obrazlarida yangi avlodning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi badiiy ifodalangan. Uchala qahramon ham yangi zamon yoshlari vakilidir. Ularda erksizlik, mutelik yo'q. Aksincha, inson ham, sevgi ham erkin bo'lsin degan tuyg'u kuchli.

Hamid Olimjon dostonida yangi zamondagi erkin sevgi muammosini hal etishda mumtoz adabiyot an'alaridan ijodiy foydalangan. Shunga ko'ra, “Zaynab va Omon” asari bu jihatdan buyuk Navoiyning “Layli va Majnun” dostoniga yaqin turadi.

Xususan, nikoh kechasi Majnunga Navfalning qizi qilgan iltijo tasviri Zaynab bilan Sobir uchrashuvi epizodiga juda yaqin. Bu ikki lavhada tasvirlangan masala va uning yechimi har ikkala dostonida ham bir xil. Bunda Majnun ham, Sobir ham erkin sevgining himoyachilari sifatida harakat qiladilar.

“Zaynab va Omon” dostonining sujeti – tugal va hayotiy. Sujet tabiiy ravishda rivojlanib boradi. Bu hol doston g‘oyaviy mundarijasini va obrazlar xarakterini hayot haqiqatiga mos ravishda chuqur ochishga imkon yaratgan. Doston kompozitsiyasi ham puxta. U kitobxon diqqatini o‘ziga jalb qiladigan, uni maftun etadigan tarzda qurilgan. Doston uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limda Zaynabning Omon ismli yigitni sevib qolishi, ular o‘rtasidagi samimiy munosabatlar zavq – shavq bilan tasvirlanadi. Ikkinchi bo‘limda Zaynabning og‘ir kechgan bolaligi va Anor xola ko‘magida yashab qolib hayotda o‘z o‘rnini topganligi hikoya qilinadi. Uchinchi bo‘limda esa Omonning tarjimai holi hamda sevishgan ikki yoshning to‘yi tasvir etiladi.

“Zaynab va Omon” dostoni obraz yaratish, til va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish jihatidan ham ustalik bilan ishlangan. Shoir xarakter yaratishda psixologik tahlil san’atidan mohirona foydalangan. Sevgi dardiga muhtalo bo‘lgan Zaynabning Omonga ilk sevgi maktubini yozishga intilishi tasvirlangan epizodni ruhiyat tahlili san’atining yaxshi namunasi desa bo‘ladi. Shoir Zaynabning sevgi maktubini yozish paytidagi ruhiy holatini tasvirlar ekan, avvalo, poetik sharoit hozirlaydi. Odatda, sevgi maktublari yoziladigan payt – tun manzarasini chizadi:

Yarim oqshom, chumchuqlar tingan,
Hamma qora libos kiyingan.
Soylarda tun, sahrolarda tun,
Daralarda, vodiylarda tun.
Yaproqlarda tun yotib uxlar,
Soylarda tun qotib uxlar...

Ana shu manzara tasviridan so‘ng shoir muhabbat olovida yonayotgan Zaynabning sevgi maktubini yozish jarayonini ko‘rsatadi. Shoir tasviricha, Zaynabda buloq suvidek pok sevgi tuyg‘usi ham, o‘zbek qizlari fe‘l – atvoriga xos sharm – hayo, iffat tuyg‘usi ham kuchli. Shu sababli qiz, bir tomondan, yurak rozini izhor etmasdan – sevgi maktubini yoznasdan turolmaydi. Ikkinchi tomondan, yigitga

birinchi bo‘lib, o‘zining yurak sirini ochishdan or qiladi. Shoir Zaynab qalbidagi ana shu ikki tuyg‘u o‘rtasidagi kurashni mahorat bilan tasvirlab bergan:

“Seni, Omon ko‘rgandan beri, ylab
Ko‘zlarimga uyqu kelmaydi.
Senga mayl qo‘ygandan beri
Hech narsaga ko‘ngil to‘lmaydi...”
O‘ylab-o‘ylab to‘xtab qoladi,
Og‘ir-og‘ir nafas oladi.
Yozganlarin o‘qiydi takror,
Yuragida uyg‘onadi or-
Va qog‘ozni yirtib tashlaydi.

Bu parchada shoir Zaynabga doir shunday harakat, o‘zgartish va detallarni topib tasvirlaganki, ular o‘sha holatdagi obraz ruhiyatiga juda monand bo‘lib tushgan. Shuning uchun kitobxon Zaynabning bu paytdagi harakatlarini g‘oyat tabiiy deb biladi va qiz bilan birga hayajonlanadi, voqeaning davomini orziqib kutadi.

“Zaynab va Omon” dostonida milliy tarovat yorqin aks etgan. Asar sujeti va undagi obrazlar talqinida, personajlar tilida, peyzaj tasvirida milliy xususiyatlar va milliy belgilar yorqin ifodalangan.

Doston uslubi – g‘oyat va jozibador, tili – sodda, jonli va bo‘yoqdor. Bu asar XX asr o‘zbek adabiyotidagi “tavsiflar bilan emas, balki manzaralar va obrazlar bilan so‘zlaydigan” (V. Belinskiy) haqiqiy she‘riyatning mumtoz namunasidir.

O‘zbek adabiyotining yirik vakili Hamid Olimjon ming yillik boy mumtoz adabiyotimizni, o‘zbek xalqi ijodini chuqur o‘zlashtirib, undan bahramand bo‘lgan ulug‘ siymolardan edi. Shuning uchun san’atkor badiiy merosida ham, ilmiy – tanqidiy maqolalarida ham bu uch sarchashmaning ruhini ayon sezishimiz qiyin emas. Bu holni ijodkorning o‘zi ham qayta – qayta ta’kidlab o‘tgan.

Hamid Olimjon yoshlik yillaridayoq xalq og‘zaki ijodiga, mumtoz adabiyotga chin yurakdan ixlos qo‘yadi. Biz Hamid Olimjon asarlarini varaqlar ekanmiz, buning yorqin guvohi bo‘lamiz. Shoirning onasi Komila aya juda ko‘p doston va ertaklarni

yod bilar edi. Ularni eshitib borgan bo'lg'usi shoir xayolida qadimgi asarlar qahramonlari xayolan qayta jonlanardi. Dostonlarning shirali tili, bir – biridan qiziq voqealari uning butun vujudini qamrab olardi. Hamid Olimjon bu zavqli tunlarni umr bo'yi xotirasida saqlab qoldi va o'zi yozgan dostonlardan biri – “Oygul bilan Baxtiyor”da esga oladi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar:
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.

Shoirning bolalikka qaytishi, ko'p ertaklar eshitganini qayd etishi bejizga emas. Chindan ham, Hamid Olimjon xalq og'zaki ijodi zaminida voyaga yetdi. Shu sababdan bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodining ta'siri uning she'rlarining faqat vazniga, ohangigagina emas, balki shoirning qariyb barcha asarlarining ruhiga ham singib ketgan, deb ayta olamiz. Shoir xalq og'zaki ijodidan asarlariga sujetlar tanladi, shunga mos holatlarni tanladi, folklor namunalari asosida jozibali obrazlar, xarakterli misralar kashf qila oldi. Taniqli adabiyotshunos olimlardan Matyoqub Qo'shjonov shoir mahoratini chuqur tahlil qilib o'tgan.

2.2. Adabiy ertaklarda uydirma va reallikning uyg'unligi

Xalq og'zaki ijodi Hamid Olimjonni shoir sifatida shakllantirgan bosh omil desak xato qilmagan bo'lamiz. Shoir ijodini nurlantirib, hatto jonlantirib turgan bu hayotbaxsh manba uning qoniga ajdodlaridan o'tgan. Otasidan juda erta yetim qolgan bo'lajak shoirning bolalik yillari onasi Komila opadan eshitgan ertak qahramonlari bilan sirlashib o'tdi. Shoirning bobosi Mullaazim ham zamonasining ziyoli kishilaridan bo'lib, ularning xonadonlarida ilg'or fikrli ziyolilar, jumladan, Fozil Yo'ldosh o'g'li kabi mashhur baxshilar ishtirokida do'mbira chertib, dostonchilik kechalarida Hamid Olimjon qalbini ajib bir qiziqish qamrab olardi.

Hamid Olimjon xalq og'zaki ijodi to'g'risida bolalik chog'larida olgan dastlabki ma'lumotlarni keyinchalik oliy maktabda o'qish, folklor asarlarini mustaqil mutolaa qilish yo'li bilan boyita bordi.

Shor 30 – yillarning ikkinchi yarmida Fozil Yo'ldosh o'g'li og'zidan yozib olingan “Alpomish” dostonini nashrga tayyorlagan, asarga kattagina so'zboshi yozib, umuman, xalq og'zaki ijodining - “Alpomish” dostonining badiiy xususiyatlarini va buyuk tarbiyaviy – estetik ahamiyatini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, folklor boyliklarini xalq mulki sifatida ko'z qorachig'iday asrash, ulardan yangi jamiyat qurish yo'lida foydalanish g'oyalarini olg'a surgan. Jumladan, u : “Bizning yozuvchilarimizga folklorni bilish qanchalik zarur ekanini hayot ko'rsatur. O'zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini

chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish, umuman aytganda, yangi o‘zbek adabiyotini chin ma’noda xalqchil qilish uchun folklorning ahamiyati buyuk bo‘lur”.

Bundan ko‘rinadiki, shoirlik, xalqona ohangda so‘zlash uning tabiatida azal – azaldan mavjud bo‘lsa, muhit uni xalq orzu – umidlarini kuychisiga aylantirdi.

Hamid Olimjonning xalq og‘zaki ijodini ulug‘lashi ostida adabiyotni xalqqa yanada yaqinlashtirish, bir so‘z bilan aytganda, uni xalqchil qilish niyati yotadi. Adabiyot xalq hayotiga, uning qalbiga qanchalik chuqur kirib borsa va bularni qanchalik mukammal, haqqoniy va ta’sirli tasvirlay olsa, u shuncha qudratli bo‘ladi. Shoir xalq ruhini fikr-tuyg‘ulari va istaklarini uning tushunarli, sodda, va go‘zal tilida ifodalash – ya’ni haqiqiy soddalikni sevadi. Hamid Olimjon hayotda ham sun’iylikni yoqtirmagan, o‘zini nihoyatda samimiy, tabiiy va oddiy tutgan. U soxta go‘zallikning dushmani, azaliy tabiiy go‘zallikning oshig‘i bo‘lgan. Shoir insonni tabiatning bir bo‘lagi, uning farzandi degan tushunchadan kelib chiqib, o‘zini “bu tabiatda bir chevar shoir” (“Neva xotiralari”) deb ataydi. Uning “Javob berib ko‘r-chi, nomard tabiat, bunchalik go‘zalni nechun yaratding” misralarining (“Ofeliyaning o‘limi”) ostida ham shu ma’no mujassam. Hamid Olimjon “Kuychining xayoli” she’rida esa ona yurtimizdagi go‘zal hayotni “juvon hayot” deb ta’riflaydi. Yoki uning O‘zbekistonni “chiroylidir go‘yo yosh kelin”(“ O‘zbekiston”) deb ulug‘lashidan anglash mumkin. Shoir Chimyonni tasvirlar ekan, shunday yozadi:

Qoyalarda asrluk doston,

Daralarda oppoq, mangu qor.

Cho‘qqilarda otash saraton.

Yon bag‘irlar, binafsha bahor.

U o‘zining amaliy ijodida xuddi shu azaliy – tabiiy go‘zallik – soddalik yo‘lidan bordi. Xalq og‘zaki ijodi uning sodda uslubini yaratishda ko‘mak berdi, oxir – oqibatda, uning ijodini chuqur xalqchil bo‘lishiga ham yordam berdi.

Ma’lumki, shoirning dunyoqarashi shakllanayotgan davrda oddiy mehnatkash xalqning turmush tarzi juda ayanchli ahvolda bo‘lib, azob – uqubatlardan qutulishni ertak va doston qahramonlari faoliyati misolida ko‘rishar, ulardagi yengilmas iroda va

tasodifiy yechimlar orqali murod – maqsadlariga erishuvlari tinglovchilarda porloq kelajakka umid tug‘dirardi.

Shoir Hamid Olimjon qalbidagi bunday adolatsizliklarga qarshi nafrat hissi butun ijodining asosiga aylandi.

Hamid Olimjon o‘zbek xalqining “Malikayi Husnobod” va “Susambil” kabi ertaklari syujetidan foydalanib yaratilgan “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida xalq baxtining qachondir bir kun ochilishiga asrlar davomida ishonib kelganini romantik uslubning tasviriylar vositalari yordamida kuyladi. Shoir xalqning g‘alabaga bo‘lgan ishonchini tarixiy – real dalillar: qullar qo‘zg‘oloni, oddiy mehnatkash xalq vakillari obrazlari – qullar, o‘tinchi, baliqchi, cho‘pon va hokazolar bilan boyitib, bahodir qiz Oygulning romantik obrazida aks ettirdi.

“Oygul bilan Baxtiyor” ertak – dostoni 1938 – yilda masnaviy usulida yozilgan. 1939 – yilda kitob holda nashr etildi. Dostonning yuzaga kelishida Alisher Navoiy, Pushkin, Gorkiy singari ulug‘ shoir va yozuvchilarning folklor materiallaridan foydalanish an‘analarini o‘zlashtirish ham ozmuncha rol o‘ynamadi. Hamid Olimjonning uqtirishicha, “Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy folklorni juda yaxshi ko‘rar va yaxshi bilar edi. Navoiy “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hikoyasini xalq og‘zaki ijodidan olib ishlagan ... O‘zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish uchun folklorning ahamiyati buyuk bo‘lur”□. Hamid Olimjon folklordan o‘rganish munosabati bilan aytgan bu ijodiy – estetik tamoyillariga sodiq qoldi. U “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida adabiyotni tilidan to obrazlarigacha, syujetidan to g‘oyaviy mazmunigacha – hammasini chuqur xalqchil qilish uchun kurashdi va bunga erishdi.

Dostonda Oygulning umumlashma obrazida o‘zbek ayollarining xalq baxt – saodati yo‘lida ko‘rsatgan mardligi, qahramonligi gavdalantirilgan. Hamid Olimjon ta’kidlaganidek: “Xalq ongida go‘zallik tushunchasi – mardlik, adolat, haqiqatning hokimligi tushunchasi bilan ajralmas bog‘langan. Odamgarchilikning biror kun qat’iy yengajagi xalq ongida zuhur topadi. Buning uchun esa qahramon bo‘lmoq, mard bo‘lmoq va dushmanlar bilan olishmoq lozim. Adolat o‘rnatish uchun botir bo‘lish

zarur. Maqsadga yetmoq uchun kurashmoq lozim”□. Oygul xarakterida zamonamizga hamohang bo‘lgan shu xususiyatlarni ko‘rsatishga alohida ahamiyat berildi. Oygul xarakterining butun go‘zalligida qahramonlik, adolat va haqiqatning yengishiga ishonch tuyg‘usi ifodalangan. .. Zolim xon Oygulning otasi – qo‘zg‘olonchilar boshlig‘i qul Darxonni o‘ldirib, qizini xotin bo‘lishga qistaganda, u jasorat bilan xonning razilona amrini rad qiladi, unga dashnom berib, o‘z nafratini va qulay payt kelsa, undan o‘ch olajagini bildiradi:

Sen otamdan ayirding,
Qanotimni qayirding...
Nafratim bordir senga,
O‘zing o‘ylab ko‘r tanga:
Sen odam emas-ku san,
Hayvondan ham past-ku san...
Taqdirim yor bo‘lsa-yu,
Fursat qulay kelsa-yu
Seni agar o‘ldirsam,
Taningga xanjar ursam,
Dunyoda eng baxtiyor
Odam bo‘lardim nomdor.

Oygul obrazi yorqin romantik bo‘yoqlarda chizilgan. U zindon azoblariga bardosh beradi, sandiq ichida uzoq muddat suvda oqishga, Jurjon podshosining do‘qlariga, Jayhun balig‘ining yutib yuborishiga chidaydi. U zulmning tomirini qirqib, Jurjon va Jambil xonlarini o‘ldirtiradi. Oygul faqir–fuqarolarga, jafokashlarga qo‘lidan kelgancha marhamat qiladi, ular manfaatini himoya qilib, zulm taxtini yiqish uchun janglarga kirib, g‘alaba qozonadi. Oygulni makkor xon vahshati ham, azim daryo dahshati ham, yirtqich baliq vahimasi ham halok eta olmaydi. Chunki Oygulning hayot yo‘li va taqdiri xalq irodasi va intilishining obrazli timsoli bo‘lib, xalqning yengilmasligi, xalq baxt – saodatining tantanasi g‘oyasini gavdalantirgan.

Hamid Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida ertaklardagi xalq ozodligi, xalqchilik ohanglarini muhabbat bilan ijodiy taraqqiy ettirib, ezuvchilarga qarshi xalq isyonkorligining kuchini qabartib ko‘rsatib, zamonaviy ruhni singdiradi. .. Quyidagi misralarga e’tibor qarataylik:

Jambil degan tomonda,

Juda qadim zamonda.

Qullar isyon qildilar..

Juda qadim zamonda, Jambil degan yurtida nihoyatda og‘ir ahvolga tushgan xalq o‘zini qul qilgan xon zulmiga qarshi bosh ko‘taradi. Bunday qo‘zg‘olonlar dunyo xalqlari tarixida ham, bizning yurtimiz o‘tmishida ham ko‘p marta bo‘lgan. Lekin ozodlikka, hur va erkin yashashga bo‘lgan intilish xalqimiz ruhini hech qachon tark etgan emas.

Jambildagi qo‘zg‘olonga keksa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul boshchilik qilardi. Kuchlar teng bo‘lmagani tufayli qo‘zg‘olonchilar mag‘lubiyatga uchrab, Darxonni qizining ko‘z o‘ngida zolim xon vahshiylarcha qatl ettiradi.

Bizga ma’lumki, “Oygul bilan Baxtiyor” xalq ertagi “Malikai Husnobod” asosida yaratilgan. “Malikai Husnobod” 1953-yilda folklorshunos olim Hodi Zarifov tomonidan yozib olingan. Bizning fikrimizcha, Hamid Olimjon bu ertakni xalq og‘zidan eshitgan bo‘lishi mumkin. Chunki “Malikai Husnobod” da Baxtiyor bilan Oygul degan ism yo‘q. Baxt ismli qahramon boshqa xalq ertaklarida ham uchraydi, xuddi shuningdek, Susambil nomli xayoliy go‘zal shahar ham “Malikai Husnobod”da tilga olinmaydi., balki boshqa ertaklarda uchraydi, hatto “Susambil” nomli ertak ham bor. Xalq dostonlarida “Chambil qamali” kabi dostonlar ham borki, Hamid Olimjon o‘sha kurash va jang, isyon voqealari tasvirlangan dostonni ham eshitgan bo‘lishi va asarga Chambilni Jambil deb olgan bo‘lishi mumkin. Chunki shoir dostonida shu Jambilda “qullar zolim xonga isyon qilganliklarini” tasvirlaydi, asar voqeasini shu xon bilan isyonchilar o‘rtasidagi kurash rivojlantiradi. Dostonga asos bo‘lgan xalq ertagida esa Chambil ham, Jambil ham emas, balki Jurjon degan yurt bo‘ladi. Demak,

dostonga bir – ikkita ertak asos bo‘lgan bo‘lsa ham, unda ko‘plab xalq ertaklari va dostonlarining ruhi, qaymog‘i yig‘ilgan.

Hamid Olimjon o‘zining g‘oyaviy niyatiga va ijodiy uslubiga moslab folklor materiallaridan erkin va ustalik bilan foydalangan, asarning ortiqcha kemptik joylarini o‘zining fantaziyasi bilan to‘ldirgan. Ertakni hayotga, real voqelikka yaqinlashtirdi, realistik kuchini oshirdi, unga o‘z aql quyoshi va yurak tafti bilan, talanti bilan sayqal berdi, unga yanada muhim ijtimoiy mazmun yukladi, badiiy jihatdan tag‘in ham jozibali va maftunkor qildi.

Hamid Olimjonning 30 – yillardagi ijodida “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” (1939) nomli ertak – dostoni alohida o‘rin egallaydi. Shoir bu dostonni yaratish bilan folklordan ijodiy oziqlanishning ibratli namunasini ko‘rsatadi. Bu dostonda ham “Oygul bilan Baxtiyor” dagi kabi ozodlik, adolat va baxtiyor hayot uchun kurash g‘oyasi yotadi. Shoir bu asarda o‘z qalbini, zamondoshlarining qalbini, hozirgi davr ruhini xalq ijodi ruhi orqali ifodaladi.

Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodidagi sevimli obrazlardan bo‘lmish “Baxt qushi”, “Semurg‘ ”larni nihoyatda sevadi va ularni ko‘p ishlatadi. Xalq ertaklarida (“Yaltillama sopol tovoq”, “Qahramon” va boshqalar) Semurg‘ mehnatkash xalqning sodiq do‘sti, uning baxtga erishishida katta yordam beruvchi ko‘makchisi tarzida ko‘rsatiladi. Shunga asoslanib turib Hamid Olimjon (“Ajdar qush” ertagidan ham foydalangan bo‘lishi mumkin deb ayta olamiz) “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” dostonini yozadi. “Ajdar qush”dagi qush salbiy obrazdir. Lekin ertakdagi podsho qizining “kimki shu ajdar qushni o‘ldirsa, shu odamga tegaman” degan shartni qo‘yishi, uni o‘ldiradigan odamning chiqmaganligi, bir kambag‘al yigit uni o‘ldirgani va “podshoning qizi esa, ajdar qushni o‘ldirgan polvon yigit kelmaganidan keyin, biror joyda o‘lib qolgan bo‘lsa kerak, deb vazirning o‘g‘liga tegishi” shoir uchun ma‘lum syujet yaratishda asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Bir qancha ertaklarda Semurg‘ bolalarini ilon hujumidan saqlab qolgan insonga yordam berishini hikoya qiluvchi ko‘chma syujet uchraydi. Hamid Olimjon ulardan ham o‘rni bilan foydalangan. Ertak shunday misralar bilan boshlanadi:

Sarv qomat Parizod
O'sdi g'amlardan ozod,
Bahor yang'lig' ochildi,
Gullar kabi sochildi.
Chiroyidan ovoza,
Elga tarqaldi toza.
Har yerga doston bo'ldi,
Dostonga bo'ston bo'ldi.

Buni eshitgan odamlar podshoning qizini ko'rishni, u bilan suhbat qurishni orzu qildilar. Eshitganlarning hammasi xaridor bo'lib kelaveradi. Lekin podshoning qizi kelgan sovchilarning birortasiga ham qiyo boqmaydi. Elda mashhur bo'lgan navqiron yigitlar, mard pahlavonlar Parizodga aslo yoqmaydi, oshiq'larga qayrilib boqmaydi ham. Qancha – qancha oshiq bo'lgan yigitlar va sovchilar qizning sirini bilgach, noumid qaytadilar. Shu tariqa podshoh qizi Parizod xalq ichida o'zini yomon otlig' ko'rsatadi. Podshoh ham qizining bu kirdikoridan pushaymon bo'ladi, erta-yu kech bundan qutulish yo'llarini izlay boshlaydi:

“El rasmini qilmagan,
Sevgi nima bilmagan,
Qari qizni netayin?
Chiqib qayga ketayin?
Qaylarga urayin bosh?
Buncha sovuq, bag'ritosh
Qizni qaydan yaratdim
O'zimni o'tga otdim ”.

“Semurg' “ dostonida shoir yuqori tabaqa bilan oddiy mehnatkash o'rtasidagi chuqur sinfiy ziddiyatni ochib beradi, ular to'qnashuvini tasvirlash orqali mehnatkash xalqning yuksak fazilatlarini ko'rsatib beradi. Podsho qizi Parizodni chaqirib, unga nasihatlar qiladi. Xalq o'rtasida yomon otlig' bo'lganidan ko'p afsus-nadomatlar chekadi. Qizining bag'ri tosh ekanidan, ko'zlari beyosh bo'lib qolganidan ko'p

malomatlarga qolganini aytadi. Qizining bu yomon qiliqlari podshoni pichoqsiz so‘yadi, bir oyog‘ini go‘r chaqirayotgan, soch-soqoli oqargan ota endi sabr qilolmaydi. Qiziga qarata: “biror yigitga ko‘ngil berishini, el ichida og‘ir uyatdan qutqarishini” oxirgi marta so‘raydi. Noiloj, Parizod o‘ylanib qoladi va otasiga faqat bitta shart qo‘yajagini, shuni bajarganga tegishini aytadi va:

Shartim shuki, ot bilan,
Go‘yoki qanot bilan,
Zo‘r chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga,
So‘zsiz xotin bo‘laman,
Гўзал отин бўламан...

Parizodning bu gaplaridan xon benihoya suyunib ketadi. Atrofiga ko‘plab jarchilarni chorlaydi. Ularga “kimda-kim xon qiziga xaridor, Parizod husniga zor bo‘lganlarga baxt-u taxt kulganini, Ot bilan chinorga chiqib, uni yiqishi kerakligini” aytadi. Hech kimda armonda qolib ketmasligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Xabarchi-yu jarchilar har yonga tinmay buni tarqatadilar. Qisqasi, buni eshitmagan odam qolmaydi. Ertasiga chavandoz pahlavonlar, barcha sohibqironlar otlarini gijinglatib, qamchilarini o‘ynatib, kattakon chinor tomon oshiqqa berdilar. Oshiqlarning keti ko‘rinmas edi:

Oshiqlar poda – poda
Bo‘lib cho‘lu sahroda,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.
Xon qizin olmoq uchun,
Elga sinalmoq uchun,
Baxtim bormi ekan, deb,
Menga yormi ekan, deb,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.

Musobaqa yetti kecha-yu yetti kunduz davom etdi. Qancha manman degan, ilon po‘stin yegan pahlavonlar maqsadlariga erisha olmaydilar; chinor joyidan silkinmaydi, hatto bir shoxi ham sinmaydi. Ular shartni bir-ikki marta qayta bajarmoqchi ham bo‘ldilar, lekin murodlari hosil bo‘lmaydi. Ko‘plari yiqilib cho‘loq bo‘ladi, tuproqlarga belanib, beli sinadi hamda umri ham tugaydi. Kunlar shu taxlitda o‘taveradi, lekin muammo hal bo‘lmaydi, hech kim muvaffaqiyat qozonolmaydi, jumboqni yecholmaydi, ya’ni “Kelganlar bo‘lib hayron, Ko‘plar bo‘lib pushaymon, Bir – bir tarqab ketdilar, Manzillarga yetdilar”.

Xon bu holatni ko‘rib aslo chiday olmaydi. Qizi Parizod ham yomon ahvolga tushadi, xasta bo‘lib, to‘shakka mixlanib qoladi. Endi xon yana qandaydir chora axtarish payiga tushib qoladi. Odamlarni chaqirib, musobaqaga qatnashmagan kim qolganini bilmoqchi bo‘ladi. Hamma odam jim qoladi. Oxiri ular: “Yolg‘iz bir Bunyod qoldi, O‘sha bir beot qoldi. U bir cho‘pon bechora, Bu ishga topmas chora. Parizodga teng bo‘lmas, Kiyimiga yeng bo‘lmas. Chinorga chiqolmas ham, Chiqolmas, yiqolmas ham”, - deb javob berishadi.

Xon bu gaplarni diqqat bilan tinglaydi va qanday bo‘lmasin Bunyodni tezda bu yerga olib kelishlarini aytadi va deydi:

Qayda bo‘lsa ham Bunyod,
Topib keltirilsin bot!
Men otimni beraman,
Qanotimni beraman.
Agar chinorga chiqsa,
Va chiqib uni yiqsa
Ahmoq, beyes bo‘lsa ham,
Maxov va pes bo‘lsa ham
Mening qizim Parizod,
Unga xotin bo‘lur bot.

So‘ng xonning odamlari Bunyodni daryo etagidan topib xon huzuriga keltiradilar. Xon noiloj otini beradi. Bunyod ichida g‘ash ham bor edi. U hayajon

bilan chinorga qaradi. Bunyod otga qamchi urdi, uchqur ot qanot chiqarib, ko'kka qarab kishnadi. Xon ham, to'plangan xalq ham "nima bo'larkin?" degan shubha bilan qarab turaverdi. Parizod ham talvasada fig'on chekib, Bunyodni kuzatardi. Bunyod ham mardona qadam tashlab otga mindi, unga qattiq qamchi solgan edi., ot yashinday qo'zg'olib ketdi. U borib chinorga o'tirdi, chinor esa tomiri bilan qo'porildi. Shoxlari yerga, tomiri esa osmonga yetib qoldi. Shu tariqa Bunyod otining qanotida baxtli ohangda yerga tushadi. El unga olqishlar aytadi, xon ham yuragi yorilguday xursand edi. Faqat Parizod,.. u behol va bemajol bo'lib qoladi.

Xalq xuddi shu holni intiqlik bilan kutib turgan edi. To'y bo'ladi deb barcha to'planadi. Bunyod toshday qotib qolgan Parizod oldiga boradi, unga sekin qo'lini uzatadi. Parizod esa undan ijirg'anadi. Yuragidagi gaplarini to'kib soladi.

Cho'pon Bunyoddan o'zga mard inson topilmaydi. Lekin Parizod so'zidan qaytib, unga yana bitta shart aytadi: devni o'ldirib kelsang, keyin rozi bo'laman, deydi:

Kun botarda bir yovuz
Dev bor emish, yalmog'iz.
Odamga dushman emish
Qon emish unga yemish.
Har musibat, har ofat,
Har bir mudhish kasofat,
Barcha jabru jafolar,
Hamma dardu balolar
O'shandan kelar emish,
Odamlarni yemirish...
Devni o'ldirib agar,
Qaytib kelsang bezarar,
Shu kuni to'y boshlarmiz,
G'am – g'ussani tashlarmiz.

Bunyod Parizodning shartlarini bajarishga tayyor edi. Xon esa yomon ahvolga tushib qoldi, bor umidi chippakka chiqdi. Oddiy xalq ham Bunyodga rahmi kelgan, ko‘z yoshi holda boqardi. Bunyod mag‘rur holda otga qamchi bosdi, sahro va cho‘llardan yolg‘iz o‘tib borardi. Bir yil yurib, bir qumlik cho‘lga yetdi. Uzoqdan bir daraxt ko‘rindi. Lekin daraxt qurigan edi. Ming yoshlar chamasidagi qurigan daraxtga qush bola ochgan edi. Qarasa, daraxtga bir katta ilon chirmashib, qush bolalariga zahar sochardi, kichkina qushlar esa chirqirashib faryod ko‘tarishardi. Qushlarning onasi ham yo‘q edi. Ular fig‘onlari falakka ko‘tarilib, onalarini kutishar edi. Bunyod u yerga yaqinlasharkan, qushlarga yordam bergisi keldi. Va “Qilichini chiqarib, Daraxt yoniga borib, O‘sha yovuz ilonni, Xunuk va mudhish jonni To‘g‘rab tashladi shu on, Qumlar bo‘ldi qizil qon...”. Chaqaloq qushlarni o‘limdan qutqarib qoldi. O‘zi daraxtning soyasida uzoq uyquga ketdi. Bir mahal bo‘ron qo‘zg‘olib, osmon guvillab qolganday bo‘ladi. “Ko‘kni tutib qanoti, Butun olamning oti – Semurg‘ qush kelib qoladi”. Semurg‘ Bunyodning oldiga oshiqardi, chunki uni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Qush bolalari bo‘zlab, o‘zlarini har tomonga ura boshlaydilar va onasiga yalinadilar: “... O‘sha qutqazdi bizni, Bo‘lmasa o‘lar edik, Ochilmay so‘lar edik. Bizni yer edi ilon, Ayrilarding, onajon”.

Shundan so‘ng Semurg‘ning onalik mehri tutib ketdi, Bunyodni o‘z panohiga oldi, salqin panada qo‘riqlab turdi. Shu tariqa Bunyod yetti tunu yetti kun uxlaydi. Oxiri Semurg‘ Bunyod dam olayotgan joyni salqinlatib, uni uyg‘otmoqchi bo‘ldi. Qushni ko‘rib Bunyod ham seskanib oldi. Semurg‘ Bunyodni odamlarga o‘xshab so‘roq qilmoqchi bo‘ladi. Giyohsiz sahro mashaqqatlarini gapirib beradi. Oxiri ana shu ilon bu yerdan makon topganini, hech bir giyoh, dov-daraxt bitmaganini, inson zoti qadam bosmaganini va o‘zi yolg‘iz turganini aytib beradi. Bunyod boshiga tushgan g‘amdan ogoh bo‘ladi va uning bu yerga bekorga kelganini, qiynalib o‘lib ketishini eslatadi. Bunyodga ne sababdan bu yoqlarga kelib qolganini so‘raganida: Bunyod yovuz devni o‘ldirib, “odamlarga baxt bermoqchi” ekanligini tushuntiradi va Semurg‘ga shunday deydi:

Meni go‘zal Parizod

Jo‘natdi, - dedi Bunyod,-
Dunyoni g‘amga ko‘mgan,
Jafo – alamga ko‘mgan
Devni o‘ldirmoqchiman.
Shuni qilsam Parizod
Yorim bo‘lib, qilur shod .

Semurg‘ Bunyodga Parizodning aldaganini, xonning qizi dev bilan yaqin ekanini, u kimni yomon ko‘rsa, unga jo‘natib o‘ldirib yuborishini aytadi. Semurg‘ unga o‘z yordamini ayamasligini bildiradi va unga : “Do‘st emas ekan senga, Sen bu yolda o‘lursan, Aniq qurbon bo‘lursan”, - deydi. Bunyod o‘z ahdida turib oladi va “SHer izidan qaytmaydi, Er so‘zidan qaytmaydi”, - deb yo‘lga tushajagini aytadi. Qushda unga nisbatan mehr uyg‘onadi. Bunyodni devning oldiga olib boradi. Semurg‘ Bunyodga dengizlar, tog‘u toshlar ustidan olib o‘tishini va ehtiyot bo‘lishini qayta – qayta tayinlaydi va “o‘lsang gunoh o‘zingda, qo‘rquv bilmas so‘zingda, agar devni o‘ldirsang, yerni nurga to‘ldirsang, yana olib qaytarman” –deya samoga ko‘tarildi. Bunyodni jangga yo‘llaydi-da o‘zi kesakka aylanib qoladi. O‘rmonlardan o‘tib borar ekan, barcha jonzotlar, parranda-yu darrandalar unga achinganday qarashadi, bulbullar ham ko‘z yoshi to‘kadi. Qisqasi, hech kim Bunyodni behudaga o‘lib ketishini istamas edi. Bunyod etti kun va yetti tun kezib, oxiri devning oldidan chiqdi. Devning tishidan zahar, ishidan o‘lim hidi kelib turar edi. Tirnog‘i qonda bo‘lsa, shoxi osmonda edi. Shunday bo‘lsa-da, Bunyodga peshvoz chiqib:

Salom, o‘g‘lim, kel, - dedi,-
Dushman emas el,- dedi,-
Omon – eson bormisan?
Parizodga yormisan?
Go‘zal qizim omonmi?
SHo‘x yulduzim omonmi?
Tilagingni ayt menga,
Ne murod kerak senga?

Bunyod devdan zarracha qo‘rqmaydi. Dev bir ofat ekanini, odamzodning katta yovi, qancha – qancha norg‘ul yigitlarning “go‘rkovi”ligini baralla aytadi. Garchi Parizod qanchalik yaqini bo‘lishiga qaramay, bu xabarni eshitib, alam yutib o‘lsa ham, devni o‘ldirib ketajagini dadil aytadi. Dev bu gaplarga chidamay, ko‘zlaridan o‘t sochgan edi, qancha – qancha o‘rmonlar yonib bitdi. Osmonda esa qushlar qon yutib chirqirashib turardi, jang oz emas, ko‘p emas ikki kecha-yu ikki kuduz to‘xtovsiz davom etdi. Bunyod payt poylab qilichni devning bo‘g‘ziga soldi, qon tirqirab daryo bo‘lib oqdi, majoli qolmagach, “Dev qulab yiqilganda, Birdan yakson bo‘lganda Yerlar qimirlab ketdi, Zilzila gurlab ketdi,..O‘rmonni tutib ketdi, U tipirlab berdi jon Va jimjit qoldi o‘rmon ”. Shundan so‘ng, Bunyod o‘zida yo‘q shod bo‘ldi. Qilichini yuvdi, bir o‘pib qiniga soldi. Parrandalarning barchasi, go‘zal oy ham Bunyodni olqishlaydilar va uni o‘rmonda kuzatib qoladilar. Bunyod Semurg‘ tomon oshiqardi. Semurg‘ garchand kesakka aylanib qolgan esa-da, qonlar to‘kilganini, Bunyodning yengganini, botir yigitning g‘ussadan pok, devning esa halok bo‘lganini juda yaxshi bilardi. Bunyod kelishi bilan bir aylanib yana qushga aylandi, botir yigitning izidan va porlab turgan ko‘zidan o‘pdi. Botir yigitga qarata dedi:

“... Kel, ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq!
Endi ketga qaytayik,
Endi doston aytayik,
Botir yigit ketdik, bo‘l!
Kelgan joyga yetdik, bo‘l!”

Botir yigit Bunyod zo‘r “duldur otga” mindi. Semurg‘ ko‘kka parvoz qildi. Go‘zal qush qanotida uchib borarkan, xayolini Parizod band qilganday bo‘ldi. U bilan suhbat qurgandek edi. Shunda Semurg‘ unga qarata: “Ey Bunyod, ko‘zingni och.. Endi yo‘lni toparsan, Kerak bo‘lsa choparsan, Bor yaxshilar bor bo‘lsin, Botir, baxting bor bo‘lsin”,- dedi-da u bilan mehr-muhabbatni bog‘lagan holda xayrlashdi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Bunyod yana tog'lardan oshib, qirlardan oshib yurtiga qadam qo'ydi. Hisoblab qarasa, rosa uch yil bo'libdi. Bunyod Parizod oldiga oshiqardi. Xon eshigini qoqarkan, Parizod ahvoli ne kechganini o'ylay boshladi. Parizodga jahonni aylanib kezmanini, Semurg' bilan keng osmonda parvoz qilganini, yovuz devni tanini qilichda to'g'raganini so'ylashga shoshardi. Lekin yigit qalbida bir g'ash bor edi...

Taxt tomonda xon kelib, Bunyodni ko'rdi-da, o'zini yo'qotib qo'ydi. Bunyod o'zicha mag'rur edi, chunki u g'olib bo'lib qaytgan edi. Daryolarni qutigan, ko'p odamlarni dardu balolarga muftalo qilgan devni o'ldirib, va'dasiga vafo qilib qaytganini hayajon bilan so'zlab beradi. Gap oxirida qizni berib, katta to'y boshlashini so'raydi. Xonning avvalgi kayfiyati yo'q edi, gapini ham paydar-pay davom ettirardi. Bunyodga va'da bergan qizi ekanini, kerak bo'lsa, u bilan orani ochiq qilish lozimligini aytadi va g'oyib bo'ladi. Mulozimlar Parizodni topdilar. Xonning qizi Parizod xursand holda o'g'lini yetaklab, qizini ko'tarib olib Bunyodga yuzlandi. Bunyoddan o'zini butkul yo'qotgan edi. Makkor qiz barcha gaplarni Bunyodga aytib beradi. U oddiy cho'pon yigitni sevmagan, unga ko'ngil qo'ymagan edi. Dev oldiga o'lib ketishini istab yuborganini aytadi.

Parizod Bunyod ketishi bilan otasining vaziriga tegib olgan bo'ladi. Bunyod hamma narsani tushunadi, faqat kech tushunadi. O'zi bilan xon va bevafo qizi o'rtasida katta to'siq borligini anglagach, aldoqchi xonni va bevafo qiz Parizodni qilichdan o'tkazmoqchi bo'ladi, lekin bu ham foydasizligini tushunib yetadi. Ko'zida yosh bilan saroyni tashlab chiqib ketadi. Xalq ham xon kirdikorlarini unutmadi.

UMUMIY XULOSALAR

Hamid Olimjon aziz umrini, nodir iste'dodini, bitmas-tuganmas kuch-g'ayratini o'z xalqiga baxshida etgan ulkan qalb egasi edi. O'ttiz besh yillik qisqa, ammo yorqin, sermazmun hayoti davomida bu ulug' zot yaratgan asarlar, amalga oshirgan ishlar, u olib borgan jo'shqin jamoatchilik faoliyati kishini hayratga soladi.

Hamid Olimjon adabiyotning turli janrlarida qalam tebratdi. Zamondoshlari hayotini haqqoniy aks ettirgan ko'pgina masnaviylar, ocherk va hikoyalar yaratdi, drama janriga qo'l urib, "Muqanna", "Jinoyat" kabi sahna asarlarini yozdi, mumtoz adabiyotimizni sinchkovlik bilan o'rganib, uning taraqqiyot qonunlari haqida teran va ko'lamli fikr yuritdi. Uning o'zbek adabiyoti tarixi, folkloristikasi, XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga oid ko'plab tadqiqotlari hanuz o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shoir sifatida uning asarlarini varaqlakanmiz, poetik merosi xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'analari bilan bevosita bog'liq ekanini anglaymiz. Shoir xalq og'zaki ijodi zaminida voyaga yetdi. Shu sabab xalq ijodiningta'siri shoir asarlarining faqat vazniga, ohangigagina emas, balki uning barcha asarlari ruhiga

ham singib ketgan. Ayniqsa, masnaviy usulidan qo'llanishi asarni yana ham jozibali qilgan, deb ayta olamiz.

Shulardan kelib chiqqan holda, Biz mazkur malakaviy ishimizda quyidagi xulosalarga keldik:

Hamid Olimjonning hayot va ijod yo'li ilmiy asosda atroflicha o'rganildi.

Shoirning ijodiy faoliyati, to'plamlari mavzudan kelib chiqqan holda o'rganildi va tahlilga tortildi.

Shoir ijodini mavzu jihatdan rang-barangligini ajratib olishga erishildi. Shoirning ertak va dostonlarida yosh avlodga xos o'tkir ijtimoiy muammolarning badiiy tasviri markaziy o'rinda turishini chuqur tahlillar asosida o'rganildi.

Hamid Olimjon she'rlarining zamonaviy o'zbek she'riyatida tamomila o'ziga xos hodisa ekanligiga e'tibor qaratildi, shoir asarlarining badiiyati, masnaviy istilohining shoir ijodiga aloqadorligi ham asarlari misolida (asosan ertak-dostonlari) qayd etib o'tildi.

Shoirning baxt va shodlik kuychisi ekanini ijodiy misollar yordamida isbotlashga erishildi, badiiy obraz yaratish yo'llari o'rganildi.

Ijodkor asarlarining badiiyatini (maxsus badiiy tasvir vositalari) o'rganildi. Shoir she'riyatida badiiy obraz va uning o'ziga xos xususiyatlari ma'lum tur (xil)larga bo'lingan holda tasnif qilishga erishildi.

Shoir she'rlari, ertak va dostonlari o'zbek adabiyotidagi eng ilg'or usullarining badiiy ifodasi ekanini hamda adabiyotimizda masnaviy janrining tutgan o'rni haqida batafsil ma'lumot olishga erishildi

Hamid Olimjon nafaqat o'ziga izdosh bo'lgan avlodga, balki Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Rauf Parfilar avlodi uchun ham murabbiy bo'ldi. Ana shu avlodning peshqadam vakili O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov shunday deydi: "Men uni ustoz deyman. Meni ilk bor she'riyatning sehrli gulbog'iga g'oyibona yetaklagan, xanda urib oqqan misralari yosh qalbinga shaloladay quyilgan, menga baxt va shodlikni kuylash san'atini o'rgatgan shoir she'riy jo'shqinlikning, shavq va ehtirosning timsoli bo'lib

qoladi. Hali ko‘p avlodlar uning satrlaridan zamonaning o‘tli nafasini tuyib, xalqning hur, baxtiyor ovozi eshitadi. Men uni ustoz deyman”.

Hamid Olimjonning baxti shundaki, shoirning o‘zi ko‘rmagan asrni, asrlarni uning asarlari ko‘rmoqda. Ha, chindan ham shoir asarlari bilan mangu tirik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent:. O‘zbekiston. 1998.-B.688.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent:. Sharq. 1998. 3-bet.
3. Karimov I. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor- T.:2009.40 b .
4. Karimov N. Hamid Olimjon. ma’rifiy-roman. Toshkent. 2009
5. Karimov N, S. Mamajonov, B. Nazarov, U. Normatov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.:”O‘qituvchi”,1999. 544 b.
6. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: “Yangi asr avlodi” 2005. 417 b.
7. S. Ahmedov va boshq. Adabiyot 5-sinf uchun darslik. T.: 2011.88-98-betlar.
8. Sharafiddinov O. Talant va mas’uliyat. “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi, 7 avgust, 1962-yil.
9. Azimov Sarvar. Hamid Olimjon abadiyati. T.: 1967.

10. Mamajonov S. Shoir dunyosi. T.: Adabiyot va san'at, 1974, 224 b.
11. Mamajonov S. Teranlik T.: 1987,91-b.
12. Karimov N. Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar, T.: 1985. 248
13. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.: 2008. 456 b.
14. Sen elimning yuragida yashaysan. Shoir haqida esdaliklar. T/: 1973. 128 b.
15. Qo'shjonov M. Saylanma. T.: Adabiyot va san'at. 1992, 124-146- b.
16. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. O'n tomlik. T.: 1982-1985.
17. Hamid Olimjon O'rik gullaganda. She'rlar, drama. T.: 1990. 296 b.
18. Hamid Olimjon. Ertaklar. T.: Adabiyot va san'at, 1989. 80 b.
19. XX asr o'zbek adabiyotida Hamid Olimjon ijodining o'rni. Shoir tavalludi 100 yilligiga bag'ishlangan respublika konferensiya materiallari. Qarshi 2009. 242 b.
20. "Sharq yulduzi", "Jahon adabiyoti" jurnallari hamda "O'zAS" gazetalari.
 1. www.ecoform.sk.uz
 2. www.edu.uz
 3. www.edunet.uz
 4. www.istedod.uz
 5. www.literature.uz

